

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA FAKULTETI

“TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI»
KAFEDRASI

XOLIQOVA ADIBA MARDIQULOVNANING
“MAKTABDA TASVIRIY SAN’ATNI O‘QITISH
DIDAKTIKASI”
mavzusidagi

5110800- “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi» ta’lim
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: Nav.D.P.I. katta o‘qituvchisi:
S.A. SHavdirov

Navoiy 2015

KIRISH.....	3
I-BOB. BOB. TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI MAQSADI VA VAZIFALARI	9
1.1. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi	9
1.2. Tasviriy san'at fani, mazmuni va mohiyati	14
II-BOB. TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASINING DIDAKTIK ASOSLARI	39
2.1. Tasviriy san'atda hozirgi zamon didaktik prinsiplari	39
2.2. O'zbek xalq rassomlarining, bizga qoldirgan boy me'roslaridan namunalar.....	58
UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR.....	72
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	78

KIRISH

Muhandiskim, bir qasr obod qildi,

Bu yang'lig' tarixni bunyod qildi.

(A.Navoiy)

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi Jamiyatimizning har bir kishisi qaysi sohada ish olib borayotganligidan qat'i nazar, go'zallik va nafislikni ko'ra olish va tushuna bilishi kerak. O'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash maqsadida o'qituvchi ularga tabiatdagi go'zalliklarni, shakl va ranglarning turli-tumanligini ko'rsatadi. Bolalarga quvonch, hayajon baxsh etgan tabiat go'zalliklari, so'z bilan tasvirlab bo'lmas rang birikmalari uzoq vaqtlargacha ularning xotirasida qoladi. Manzara, daraxtlar, barglar va gullarning o'ziga qarab rasmini chizish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali bolalar tabiatga ko'proq qiziqadigan bo'ladilar. Bunday darslar bolalarga dunyoni keng va atroflicha ko'ra olishga, shuningdek, ko'rish orqali olgan taassurotlari doirasini kengaytirishga, narsalar haqida aniq va to'liq tushunchalar hosil qilishga yordam beradi. Rasm chizish jarayonida bolalar narsalarning shakli, mutanosibligi, fazodagi holati, rangi va och-to'qlik nisbatlarini diqqat bilan o'rganadilar.

Tasviriy san'at o'quv fani umumiy o'rta ta'lim fanlari ichida ma'naviy sog'lom avlod tarbiyasi masalasini ijobiy hal etishda keng imkoniyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Chunki, aynan tasviriy san'at darslarida san'at va san'atkor olami, san'atning ijtimoiy vazifasi va o'ziga xos xususiyati, uning tasviriy ifodaviy «tili»ni o'rganib borish orqali o'quvchilar atrof muhit, tasviriy, amaliy san'at va me'morlikdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, anglash, ularni baholash, qadrlash va muhofaza qilishni o'rganib boradilar. Shuning uchun ham tasviriy san'at o'quv predmetining bosh maqsadi o'quvchilarda estetik madaniyatni va badiiy tafakkurni yuksaltirish hamda tasviriy savodxonlikni tarbiyalashdan iboratdir.

1997-yili O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da estetik turkumdagi fanlarni o‘qitilishiga alohida e’tibor berilgan bo‘lib, xususan uning “Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari” qismida uzluksiz ta’limning faoliyat ko‘rsatish prinsiplaridan biri ta’limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. U ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish¹ lozimligini qayd etadi.

Tasviriy san’at o‘quv predmeti har bir inson uchun zarur bo‘lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki, har bir o‘quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat’iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo‘ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san’at asarlari bilan muzey, ko‘rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek, ko‘pchilik o‘quvchilar o‘zlarining kelajak hayotlarida ma’lum miqdorda rasm ishlashlariga to‘g‘ri keladi. Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me’morlar uchungina emas, u o‘qituvchilar, injenerlar, mediklar, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Ularning har biri o‘z faoliyatlarida rasm, sxemalar, diagrammalar, eskizlar orqali so‘z bilan tushuntirib bo‘lmaydigan o‘z g‘oya va fikrlarini tasvirlab ko‘rsatishga harakat qiladilar.

Prezidentimiz I. A. Karimovning “... biz o‘z tariximizni xolisona va haqqoniy baholab, ma’naviy merosimizni boyitish va rivojlantirishga o‘z hissamizni qo‘shishimiz, shu asosda bugungi jahon ilm-u fani va ma’daniyatining yuksak cho‘qqilarini egallashdek buyuk vazifaga har tomonlama munosib va qodir bo‘lishimiz darkor”¹ – deb aytgan fikrlari o‘rinli.

Yoshlarni barkamol inson etib tarbiyalashda tasviriy san’at fani alohida ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san’at o‘qituvchisi fanning barcha bo‘limlari bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi boshqa fanlar bilan aloqalari, san’atshunoslik va gumanitar yo‘nalishlari haqida aniq tasavvur hamda ularni amalda qo‘llash malakasiga ega

¹ I.A.Karimov. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent 1998, 44-bet.

bo‘lishi zarur. Hukumatimiz ijodkor barkamol yoshlarni tayyorlash bo‘yicha rassom-pedagoglar oldiga mazmunan yangi talab va vazifalarni qo‘ymoqda.

Eng asosiy maqsad – zamonaviy tasviriy san‘at o‘qituvchisi orqali yoshlarimizdagi qobiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to‘g‘ri shakllantirish va yuzaga chiqarish, tasviriy san‘at pedagogikasining o‘ziga xos murakkabliklarini tushunib, uning nozik qirralarini talaba-o‘quvchilarga ulashish mahoratiga ega bo‘la oladigan ustoz-murabbiylarni yetishtirib chiqarishdir.

Bu borada O‘zbekiston Prezidenti I. A. Karimovning “Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o‘rganilishi an’analarimizning saqlanishi, madaniyat va san‘at, fan va ta’lim rivoji bilan uzviy bog‘liqdir”² degan so‘zlari bilan ma’naviyat cho‘qqisiga intilishga chorlamoqda.

Tasviriy, amaliy san‘at ta’limi va tarbiyasi mazmunida milliy san‘at merosimiz bilan birgalikda umumbadiiy ta’limshunosligi va uslubiyatiga tayanish lozim. Ta’lim mazmunining muhim yo‘nalishlari, umumbadiiy va milliy an’analarining ustuvorligiga amal qilishdir.

Rus rassomi va pedagogi D.N. Kardovskiy «San’atni o‘rganayotganlar tasvirlashning yo‘llari va usullari, ya’ni narsalarning shakli, nisbatlari, rangi, yorug‘ligi, xususiyati va harakat qonuniyatlariga bo‘ysunishga majburdirlar»³ – deb aytib o‘tgan.

O‘qitishning asosiy talablari uchun zaruriy shartlar esa Tasviriy san‘at sirlarini o‘zlashtirish bilan birga o‘quvchi va yoshlarga har jihatdan o‘rgata olish usullarini egallashdir.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyoti o‘zining ma’no - mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat - milliy Iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashtiruvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro

¹ I.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T., “Ma’naviyat” 2008, 52-bet

² I.A. Karimov. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., “O‘zbekiston”, 2000, 386-bet.

³ Д.Н.Кардовский. Воспоминания, статьи, письма. М., 1960, 128-бет

maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Shunga ko'ra, biz mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda, jahon miqyosidagi inqiroz oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olib, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini, ushbu jarayonlarni pishiq hamda mukammal shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimizni taqozo etadi. Shunday ekan bugungi kun talabi, har tomonlama mukammal ilm egalarini jamiyatimizga yetkazib berishimizni, davrning o'zi talab qilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi

– Men o'z bitiruv malakaviy ishimda Maktabda tasviriy san'atni o'qitish didaktikasi, o'rgatishning usullari va o'qitilayotgan tasviriy san'at darslarining o'zini haqida umumiy tushuncha berishni;

– maktab o'quvchilarini ijodkorligini va faolligini oshirishda tasviriy san'atni o'qitish didaktikasining roli, tutgan o'zini, qonun-qoidalarini, usullarini o'rgatish;

– tasviriy san'atni o'qitish didaktikasi orqali maktab o'quvchilarini ijodkorligini oshirish usullariga doir misollar keltirishni o'z oldinga maqsad qilib qo'yaman.

Ishning tadqiqot ob'ekti – maktab o'quvchilarida tasviriy san'atni o'qitish didaktikasi orqali o'quvchi yoshlarni malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda o'qitilayotgan “Tasviriy san'at” darslarini zamonaviy loyihalash jarayoni.

Ishning tadqiqot predmeti – Maktab o'quvchilarida tasviriy san'atni o'qitish didaktikasi orqali o'quvchi yoshlarni malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda “Tasviriy san'at” darslarini zamonaviy loyihalash, o'quvchilarda tasviriy san'atga qiziqishlarini rivojlantirish mazmuni, shakli va metodlari.

Ishning tadqiqot farazi – Tasviriy san'at maktablari o'quvchilarida tasviriy san'atni o'qitish didaktikasi orqali o'quvchi yoshlarni malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda “Tasviriy san'at” darslarini zamonaviy loyihalash quyidagilarga amal qilinganda samarali natijalar beradi:

- “Tasviriy san’at” o‘quv dasturi talablaridan kelib chiqib, san’at, tasviriy san’at, milliy va jahon didaktikasi chuqur o‘rganilganda;
- o‘rganilayotgan tasviriy san’atni o‘qitish didaktikasi milliy va jahon didaktikasi bo‘limlari chuqur tahlil qilinganda;
- ilg‘or texnologiyalar, samarali metodlardan foydalanib, yoshlarning ijtimoiy-shaxsiy motivatsiyasi emotsional-estetik omil sifatida o‘rganilganda;
- “Tasviriy san’at” darslarida o‘quvchilarning tasviriy san’atni o‘qitish didaktikasiga bo‘lgan qiziqishlari faollashtirilganda va zamonaviy nazariy-metodologik qoidalarga amal qilinganda;
- “Tasviriy san’at” o‘quv fani dasturini zamonaviy ravishda takomillashtirish va tasviriy san’atni o‘qitish didaktikasiga o‘quvchilarning qiziqish mezonlari aniq belgilab olinganda.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- O‘quvchilarni tasviriy san’atni o‘qitish didaktikasi orqali malakatini oshrishda tasviriy san’at mashg‘ulotlarini o‘qitishda o‘quvchilar uchun engil usullardan foydalanib dars berish orqali bilim, malaka ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishni.
- tasviriy san’atni o‘qitish didaktikasini yangi pedagogik va innovatsion texnologiya usullaridan foydalangan holda natijali bilim berish.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi:

- maktab o‘quvchilarini tasviriy ijodkorligini oshrishda tasviriy san’atni o‘qitish didaktikasini yaxshi o‘zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan metodlari ishlab chiqildi;
- maktabda o‘qitilayotgan tasviriy san’at fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi;
- tasvitiy san’at mashg‘ulotlarida o‘qitish didaktikasi orqali o‘quvchilarning malakalarini oshirishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlandi;

Himoyaga olib chiqiladigan g‘oyalar:

1. O‘zbekiston Respublikasining maktablarida o‘qitilayotgan “Tasviriy san’at” darslarini zamonaviy loyihalash jamiyatning ta’lim tizimi oldiga qo‘yayotgan ijtimoiy buyurtmasi ekanligi.

2. O‘rganilayotgan muammoga mos “Tasviriy san’at” o‘quv fani dasturining pedagogik-tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash.

3. “Tasviriy san’at” o‘quv fani dasturini modifikatsiyalashtirish.

4. Maktablarida o‘qitilayotgan Tasviriy san’at mashg‘ulotlarini zamonaviy loyihalash tizimi, texnologiyasi, innovatsion metodlari, optimal vositalari.

5. Maktablarda o‘qitilayotgan o‘qitishning didaktikasi zamonaviy loyihalash tizimi, mazmuni, jarayoni va texnologiyalarini rivojlantirish samaradorligi.

Bitiruv malakaviy ishituzilishi: kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, jami 80 sahifani tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishimizni yozishda qo‘yidagi: – analitik tahlil, qiyosiy tahlil – pedagogik ko‘zatuv, tajriba-sinov, matematik statistika metodlaridan unumli foydalana oldik.

I-BOB. TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI MAQSADI VA VAZIFALARI

1.1. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi

Tarix xotirasi xalqning, jonajon o'lkamizning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni yangilashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi. Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda. Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblarni ko'p bo'lgan.

Imom at Termiziy, Imom al Buxoriy, Hoja Bahovuddin Naqshbandiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizning rivojlanishiga ulkan xissa qo'shdilar, xalqimizning milliy iftixori bo'lib qoldilar. Ularning nomlari, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk xissalari hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum. Madaniyat va san'at, uning rivojlanish jarayoni tarixini bilish o'qish va o'rganish – bu bizning kelajak dunyoviy tafakkurimizning qay darajada bo'lishligini belgilab beradi.

Shu o'rinda avlodlardan avlodga afsona sifatida o'tib kelayotgan bir haqiqatni kiritib ketsak zarar qilmaymiz.

– Emishki islom dinining asoschisi payg'ambarimiz Muhammad (SAV) ko'chada ketayotgan bir bekorchini yigitga duch keladi. U yigit ham payg'ambarimizni ko'rib darrov salom beribdi. Payg'ambarimiz esa u yigitni salomiga – alik olmabdi va yo'lida davom etib ketaveribdi. Bu hol ertasi kuni ham takrorlanibdi. Uchunchi kuni payg'ambarimiz o'sha yigitni yana ko'rib qolibdi. U yigit esa payg'ambarimizni kelayotganini sezmasdan erga nimalarnidir tasvirlab, chizib o'tirgan ekan. Bu holni ko'rgan payg'ambarimiz yigitni yoniga kelib salom beribdi. Bunday holatdan hayron qolgan yigit – payg'ambaridan so'rabdi.

– Ey Muhammad, sen menga tushuntirib bergin-chi, nima uchun men ikki kundan buyon senga salom bersam - alik olmaysan.

Bugun sen o‘zing kelib menga salom bermoqdasan? – debdi.

Shunda Muhammad (SAV) aytibdi – savoling to‘g‘ri, ikki bor salom berding, men alik olmadim, sababi sen bekorchi eding. Bugun esa o‘zim kelib salom berdim, chunki sen mehnat qilayapsan. Bu holat menga yoqdi – debdilar. Qissadan hissa shulki, siz-u biz, ya‘ni ilm ahlning asosiy ishimiz- bilim olish, ilmi bo‘lish, aqliy mehnat bilan shug‘ullanish ekan. Har bir talaba, har bir bo‘lajak o‘qituvchi o‘z ustida juda ko‘p tinmay shug‘ullanishi lozim. Shunday ekan tasviriy san‘at insonni har tomonlama kamol topishida jahon pedagogikasining eng muhim va ajralmas bo‘limi bo‘lib qolaveradi. Insonning atrof - muhit, tabiatni tushunishda ma‘naviy o‘zligini anglashda bu fan ilmi asosiy manba bo‘la oladi.

Bu fandan xabardor inson xarakterida insonparvarlik, oliyjanoblik, kishilarga nisbatan mehr-muruvvat kabi xususiyatlar ustunroq shakllanadi.

Hayotdagi kamchiliklar, ziddiyatlarni bartaraf etishda, zamonaviy sharoitni hisobga olgan holda, O‘quvchilarda aniq axloqiy tarbiya kriteriyalarini, ishlab chiqish va ularni jalb etish qoidalarini takomillashtirish kerak.

Estetik va badiiy fanlararo aloqalarning hayotiy murakkabligi hamda hayotiy yashash yo‘lini fikrlab ko‘ra bila oladigan o‘quvchilarni tarbiyalash, amaliy ish jarayonida bilim berishni qayta qurish tubdan ko‘rib chiqishni talab etadi.

- Axloqiy madaniyatni yuqori darajada shakllantirish uchun ijodiy tasavvurni takomillashtirish lozim bo‘ladi. Ijodiy kengqamrovli tasavvur qila olish qobiliyatiga ega bolalarga tasviriy san‘at alifbosiga to‘g‘ri yo‘naltirishni yo‘lga qo‘yish kerak.

- Tasviriy san‘at inson hayotida, uning axloqiy tarbiyasiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biridir. Insonning his qilish, san‘at ob’ektidan hissiy lazzatlanish xususiyatlarini shakllantirishda – san‘atning y‘naltiruvchi asosiy kuchini ko‘ramiz.

V.A.Suxomlinskiy – bolalar tarbiyasi to‘g‘risida juda ko‘p foydali fikrlar berib ketgan. Bolalarni hissiy tarbiyalash estetik-axloqiy madaniyatli etib

tarbiyalash go‘zallikni seza olish, qabul qilish bilishni shakllantirish kerak.

Jismoniy va ilohiy go‘zallikni his qilish tasavvur qilish haqida ham o‘ylab ko‘rilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Qilgan ishidan zavqlanish, san‘atni tushunish va his qilish, hamda bolalarni san‘at asarlarini sevisga o‘rgatish, tabiatni muhofaza qilish tabiatdan zavq olish kabi hislatlarni takomillashtirish lozim.

Har bir odam go‘zallikni ko‘ra bilish, his qilishi, zavqlana olishi ma‘naviy tarbiyaning asosidir.

Insonning intilishi uning dunyoqarashini shakllantiradi.

Ma‘naviy tarbiyada tasviriy san‘atning tutgan rolini hech bir narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi. Tushunib etish, his qilish orqali turli xil obrazlarni yaratamizki bu siymolar inson yuragiga diliga yo‘l topadi. Aqlini taajjubga soladi.

Badiiy didning o‘sishi, ma‘naviy qoniqish hosil qilishga, inson dunyoqarashining shakllanishiga sharoit yaratadi. Ijtimoiy ko‘tarinkilik, shaxsning ma‘naviy-ma‘rifiy bilimini, hayotda tutgan o‘rnini belgilab beradi.

San‘at asarlarini chuqur tushunish, fikrlash undan qoniqish hosil qilish – insonning fikriy doirasiga didiga bog‘liq.

Ibtidoiy jamoa tuzumidan boshlab odam o‘zining mustaqil fikrlashi, idrok qilishi, tabiat xodisalaridan o‘z manfaatini yo‘lida foydalana bilishi orqali inson qifasini egallaydi.

Hozirgi kunda ham inson dunyoni chuqur bilmay turib tabiatdagi biron bir voqeani yoki hodisani to‘g‘ri talqin qila olmasligi bor gap. Demak insonga chuqur dunyoviy bilimlar doimo va har lahza zarurdir.

Ijtimoiy yuksalish uchun odam zotiga hamisha juda katta bilim, kuch-quvvat kerak bo‘lsa, go‘zallikni tushunish uchun idrokiy tasavvur lozim bo‘ladi.

Inson doimo yuqori darajadagi tushuncha va didga ega bo‘lmog‘i hamda bolani shunday yo‘nalishda tarbiyalamog‘i shart. Bu esa odamning eng yuqori yutuqlaridan biridir.

Keling, tasviriy san‘at fani pedagogikasi masalalariga yaqinroq qaytaylik.

- Tasviriy san‘at asari muallifi muhitni, orzu qilgan obrazni yaratish,

go‘zallikni paydo qilish uchun uni avval tasavvur etmog‘i va so‘ng tasvirlamog‘i lozim. O‘z ustida tinimsiz mehnat qilgan musavvirgina o‘zi orzu qilgan ko‘nikmani shakllantira oladi.

Bola bilish orqali har tomonlama rivojlanadi, olam butunligini tushunib etadi. Go‘zallikni sevis, uni his qilish darajasiga erishadi.

- Go‘zallik nima?

Insonning hayotiy turmush tarzida, axloqiy va ijtimoiy hayotida, ma‘naviy chehrasining tabiiy shakllanishida aks etadigan holatlar tizimida – ma‘naviy tarbiyaning asosiy kategoriyalari sifatida aks etadi. Go‘zallikni ko‘ra bilish, his qilish, did bilan baho berish - hissiy ko‘nikma hosil qilishga olib keladi.

Narsalarning bir-biriga bog‘liqligi, ovozlarning tabiat bilan uyg‘unlashib ketishi, ranglarni o‘zaro uzviy ohangdorligi – go‘zallik negizidir. Inson ichki dunyosining mukamalligi didining yuksakligi – shaxsni hissiy go‘zallikka intiluvchan etib tarbiyalaydi.

O‘zaro muloqatda ham odamlarning ma‘naviy etukligi, faolligi tufayli – inson ijtimoiy hayotning yaratuvchisi deyishimizga asos bo‘ladi.

San‘atda – go‘zallikning ro‘yi-rost barq urishi uning aks etishi insonning yaratuvchanligiga bog‘liq.

Go‘zallik o‘quvchilar shaxsining – shakllanishida ham muhim rol o‘ynaydi.

Badiiy ko‘nikma bilish bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Badiiy boylikni tushunish turli tasodiflar tufayli turli yo‘sinda o‘sadi.

Bir-biriga bog‘liq holda rivojlanadi.

- Hayot esa bir-biriga ta’sir etuvchi kuchlar orqali davom etadi va yuksaladi.

Go‘zallik – insonni hissiy junbushga keltirsa atrof muhitga bo‘lgan ishtiyoqini oshirsa tabiiy voqealarni tahlil qilishga undasa demak go‘zallikni o‘zining sirli kuchi bilan inson ruhiga ta’sir ko‘rsatmoqda deb tushunish kerak.

Shu kuch go‘zallikni his etib-yanada go‘zalroq san‘at asarini yaratishga ilxomlantiradi.

- Bola ko‘rganini qiladi degan xalqimizda maqol bor – demak bola oilada

maktabda ma'naviy tarbiyaning asosini oladikim – bu ta'lim umrining oxiriga qadar ta'sir etish mumkin. Ma'naviy tarbiya asosi esa go'zallikni, atrof-muhitni sevrishga o'rgatadi. Yaratuvchanlik qobiliyatini shakllantiradi.

Badiiy asarlarni sevrish, tushunish, avaylab – asrash ijodiyotga intilish kabi hislatlarning debochasiga asos solinadi.

Ma'naviy tarbiya – bu hissiy did va aqliy ko'nikma hosilidir.

Estetika – go'zallik manbaidir, to'g'ri tushunish, to'g'ri xursand bo'lish, san'atning hayotdagi o'rnini ko'ra bilishdir – degan Aristotel'. Ma'naviy did - insonda go'zallikni his qilish, sezish qobiliyatining negizidir.

Shaxsning axloqiy tarbiyasi – ma'naviy tarbiya bilan uzviy bog'liqdir. Insonda mudrab yotgan hissiyotni uyg'otish – ma'naviyatning asosidir. Butun ish faoliyati davrida to'g'ri mo'ljalda ish olib borish – go'zallikni his qilish manbai hisoblanadi.

Tashabbuskorlik hayotda o'ziga ishonch, hayotga bo'lgan muhabbat, olam go'zalligini his qilish, haqiqatni yolg'ondan farq qila olish, go'zallikni xunuklikdan farqlay olishlik kabi hislatlarning takomillashuvida san'at asarlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

-Inson bitta non, suv bilan tirik emas balki uning hayotda barkamol yashashi uchun ma'naviy boyligi, dunyoqarashi, didi ham zarurdir.

Inson hayotda baxtli yashash uchun mayda-chuyda narsalarning bo'lishi etarli emas. Hayotda har bir narsani o'z o'ni bor.

Ijtimoiy hayotdagi saboqlar shu narsani ko'rsatadiki ma'naviy tarbiyadagi ehtiyotsizlik maktab partalaridan hissiy bo'sh, ma'naviy noetuk, go'zallikni ko'ra olmaydigan, hissiyotsiz, didsiz shaxslarni shakllanib qolishiga sabab bo'ladi. Aqlan - zaif, qahri - qattiq, atrof- muhitga beparvo, ota-onasiga bemehr, qallob, shafqatsiz, o'z shaxsidan boshqa shaxslarni past ko'radigan, turli oqim va aqidalarga ishonuvchan, dinga ko'r-ko'rona ishonuvchan –manqurtlar etishib chiqishiga yordam beradi.

Ular shiddatli hayot oqimiga tayyor emas, o'z manfaatini ko'zlavchilar bo'lib qoladilar. Ularni san'atga, go'zallikka yo'naltirish bu jamiyatimizning kelajagi

ishonchli qo'llarga o'tishi uchun asosiy ko'prik vazifasini o'taydi. Bu o'rinda tasviriy san'at o'qituvchisining hissasi beqiyosdir.

Go'zallik bu – takrori yo'q gavhardir.

Uni ko'ra bilishning ilk g'unchasi –san'atdir.

- tabiat go'zallikni yaratuvchi bog'bon.
- umumbashiriyat go'zallik ila tirik va to'la-to'kis hamohang yashaydi
- Go'zallik doimo ko'z oldimizda, uni biz har lahzada ko'rishimiz his qilishimiz mumkin lekin bu holatni his qilib sezish hammaga ham nasib etavermaydi. Olamda xunik narsaning o'zi yo'q, hamma narsa chiroylidir. Uni qanday qabul ko'ra olishga bog'liqdir.

- Chiroyni, go'zallikni ko'ra bilishlik, qalbdan sezish, zavqlanish, lazzatlanish – bu ma'naviy didimizga, axloqiy dunyoqarashimizga bog'lik.

1.2. Tasviriy san'at fani, mazmuni va mohiyati

Rassom odamni, hayvonat olamini tasvirlar ekan uning tuzilishini hamda tasvirlash metodikasini mukammal bilmog'i lozim.

Metodika so'zi grekcha bo'lib, «tadqiqot» yo'li bilish, usul ma'nolarini beradi. Pedagogikada o'qitish metodlari deganda, talabalarni bilim, mahorat va malakalarini oshirishda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoviy bilimlarni chuqur egallashida o'qituvchilarning qo'llagan ish metodlari - usullari tushuniladi.

Tasviriy san'at darsligining samaradorligini oshirish yo'llaridan biri har bir dars materialini maktabda o'tiladigan boshqa fan materiallariga bog'lab o'tishdir. Rasm darslarining geometriya, mehnat, geografiya fanlari bog'lanishi ma'lum. Ko'p yillik tajriba va o'tkaztlayotgan darslar shuni ko'rsatdiki, tasviriy san'at predmeti darslari yuqoridagi fanlardan tashqari fanlardan maktabda o'qitiladigan juda ko'p tabiiy va gumanitar harakterdagi o'quv predmetlari bilan ham bevosita bog'lanadi. Maktabda o'quv pedmetlarini o'zaro bog'lab tushuntirish o'quvchilarning bu fanlarni o'zlashtirishni, albatta asoslantiradi. Rasm o'qituvchisi o'z fanini nazariy jihatdan puxta bilish bilan birga dars olib borishning metodik

prinsiplarini ham chuqur bilgandagina tasviriyl san'at darsini boshqa fanlar bilan bog'lab o'ta oladi.

Predmetlararo bog'lanish darsining samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini juda ko'p pedagog olimlar o'z asarlarida ta'kidlab o'tgan edilar. Jumladan, ulug' chex pedagogi Yag Amos Komenskiy: «Buyuk didaktika» kitobida «O'zaro bog'liq narsalarning hammasini doimo birgalikda o'rganish lozim», - degan edi.

Predmetlararo bog'lanish dars materialini tushunarli qilib izoxlashda boshqa o'quv materiallaridan ijodiy foydalanish demakdir.

Chunki maktabda o'qitilayotgan barcha o'quv predmetlari ob'ektiv borliqni va uning elementlarini o'rganadi.

Ximiya narsalarning ximiyaviy xolatini esa fizika fani o'rganadi va hakoza. Barcha fanlar bir bo'lib o'quvchida narsalar-voqealar haqida to'la bo'lim hosil qiladi. Shunday ekan, fanlar bir-birga qanchalik yaqin bo'lsa o'quvchilarning tushunishi shuncha osonlashadi, ular ba'zi fanlari emas, balki barcha fanlarni birday o'zlashtirishga harakat qiladi. Masalan, tasviriyl san'at programmasida «Qush turkumiga qarab rasmni chizish temasi bo'lib, bu sinfda o'qitiladigan o'quv predmetlari o'quvchilarga qush va parrandlar haqida ma'lumot bermaydi». Shuning uchun tasviriyl san'at o'qituvchisi bu darsga tayyorlanayotganda maktabning zoologiya va geografiya o'qituvchisi bilan suxbatlashib undan kerakli maslahat materiallar olishi lozim. Shundan so'ng o'qituvchi biologiya kabinetidagi qushlarning skelet va tulumlaridan, qushlar tasvirlangan ko'rgazma plakatlaridan foydalanib, dars konspektini yozadi. Agar biologiya kabinetida qushlar tasviri tushirilgan diafil'm, yoki slaydalar bo'lsa, uni o'quvchilarga namoyish qilish kerak. Tasviriyl san'at darslarida ko'pincha meva va sabzavodlar rasmini chizdiriladi. Bu darslarda albatta albatta yoki natyurmortlardan foydalaniladi. Bu temalarning taxlil darslari botanika faniga bog'lab olib boriladi.

Har bir fan o'qituvchisi bir necha fan o'quv pragrammasida bir narsa, bir ob'ekt, bir voqeani o'rganish mumkin. Ammo ular aslo bir-birlarini takrorlamaydilar, chunki har bir fan shu materialni narsalarni yoki ob'ektni o'z

nuqtai nazaridan tekshiradi va o'rganadi.

Demak, biron bir asarni tahlil qilish darsini maqsadga muvofiq o'tish uchun o'qituvchi tarix, geografiya, adabiyot muzika kabi o'quv predmetlari bilan aloqa bog'lashi maqsadga muvofiqdir.

Buning uchun fan o'qituvchilari bir-birlarining bitta tema bo'yicha o'tiladigan materiallarini yaxshi bilishlari va materiallariga o'z materiallarini bog'lash lozim. Agar o'qituvchi o'zi o'qitayotgan temaning boshqa o'quv predmetida ham o'rganilishini bilmasa va uning materiallari bo'yicha ma'lumotga ega bo'lmasa, u o'z materialini atroflicha tushuntirib bera olmaydilar.

Masalan: tasviriy san'at kabinetining 8 martga bag'ishlangan devoriy gazetasini chiqarish uchun o'quvchilar bu gazetaning bezatilishiga bilib qolmay, er sharini «onalik» simvolini «tinchlik» simvolini xotin-qizlar kuni haqidagi tarixiy ma'lumotlarni ham bilib oladilar. Chunki tasviriy san'at o'qituvchisichizilishi lozim bo'lgan narsa yoki xodisalar haqida suxbat o'tkazib, bu suxbatda tasvirlanishi lozim bo'lgan barcha elementlarni, ularni tasvirlash yo'llarini, tasvirlashda asosan nimalarga e'tibor berish kerakligini tushuntirib beradi.

Amaliy mashg'ulotlarning asosiy yo'nalishlari bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining dars jarayonini tashkil qilish, rejalashtirish va metodik jihatdan mantiqiy ravishda amalga oshirish, sinf taxtasid bo'r bilan tasvir ishlash ko'nikma va maxoratlarini rivojlantirishga qaratilgan. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fani dasturi asosida quyidagi amaliy ish turlari nazarda tutilgan:

Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at fanini o'tish uchun

1. Bir o'quv yili uchun tasvirli-mavzuli reja tuzish;
2. Tasviriy san'at dars turlari bo'yicha dars bayonlarni ishlash;
3. Tasviriy san'atdars turlariga ko'rsatmali qurollarni tayyorlash;
4. Tasviriy san'at darsining biror turiga namunaviy dars bayonini tuzish va namoyish etish;
5. Darslarni taxlil etish;
6. Sinf taxtasida bo'r bilan tasvir ishlash;
7. Tasviriy san'at darslaridan suxbat darsiga «Referat» yozish;

8. Kurs ishi;

9. Malakaviy ishlar talabalar tomonidan o'qituvchi raxbrligida bajariladi.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'limning turli usullari qo'llaniladi. Masalan: o'quv, o'quv turi, rejasini dasturi va ta'lim prinsiplari, o'quv tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari muhim ahamiyatga egadir.

Respublikamizda ro'y berayotgan o'zgarishlar barcha sohalaridagi kabi bo'lajak tasviriy san'at pedagoglarining zimmasiga ham o'ta ma'suliyatli vazifalarni yuklaydi. Darhaqiqat xalqimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritib xalqaro miqyosida to'la o'zligini namoyish qildi.

Tasviriy san'at, ya'ni ma'naviyat o'qituvchisi boshqa fanlar o'qituvchilari kabi birinchi galda eng yuksak fazilatli, axloqiy pok, iymon va e'tiqodli, halol va sofdil, talabalarga, o'smir va yoshlarga nisbatan o'ta mehribon, o'ta talabchan va o'zbek xalqining urf-odatlarini, an'analarini mukammal biladigan va hurmatini joyiga qo'yadigan bo'lishi kerak.

O'qituvchining kasbiy xususiyatlari borasida to'xtalganda shuni ta'kidlash lozimki, u eng avvalo o'z kasbining jonkuyari, uni dildan sevadigan, o'z ishiga ijodiy va ilmiy yondoshadigan shaxs bo'lmog'i ta'lab etiladi. Bu shaxsda yangi bilimlar va ilg'or tajribalariga chanqoqlik, muhimi unda tashkilotchilik, kuzatuvchanlik, qat'iylik va insoniylik xususiyatlari yaqqol sezilib tursin. O'qituvchi tasviriy san'atdan maxsus bilim va malakalar bilan qurollanmasdan turib muallimlikni bajara olmaydi yoki o'quvchi yoshlarga tabiat go'zalligini, ona Vatanimizning tarixini, milliy merosimizning tarixini ta'riflab bera olmaydi, hamda o'z kasbiga qiziqтира olmaydi.

Bugungi talaba, bo'lajak pedagog, o'zbek xalqining hamda o'tmishi bor bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlarning amaliy va tasviriy san'at borasidagi noyob namunalarini o'zlashtirgan bo'lishi va to'laligicha o'quvchi yoshlarga ulashmog'i ayni davr talabidir. Shu sababli bo'lajak rassom-pedagoglarga quyidagi talablar yuklanadi :

- O'zlari ta'lim berishi lozim bo'lgan o'smir va yoshlarga san'at sirlarini, madaniy meros namunalarini har tomonlama o'rgatish;

- Ayni yangilanish, rivojlanish davrida yosh avlodni bilimdon, yaratuvchan, yuksak madaniyatli va mustaqil mamlakat taqdiri uchun ma'sul shaxslar qilib tarbiyalash;

- Ulug'vor bunyodkorlik ishida malakali, g'ayratli o'qituvchilar yoshlar peshqadamlik qilmoqlari uchun zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash ;

- Talabalarni tasviriy san'at yo'nalishi buyicha ijodkorlikka etaklash, layoqat sezilganda esa astoydil o'rgatish uchun maxsus maktab yoki to'garaklarga jalb etish :

- O'quvchi va yoshlarga nafis san'at sirlarini o'rgatish borasida o'z ustida doimo izlanish, talabalar faoliyatini rivojlantirib, to'g'ri va asosli shakllantirish uchun pedagogik qoidalar asosida tajribalar olib borish :

- Turli davr, turli xalqlarga mansub tasviriy san'at asarlarini mushohada qila olmog'i va uni tushunish sirlarini yoshlarga ulashish uslublariga ega bo'lish:

- Tasviriy san'at insonni shakllantirishdagi muhim va ishonchli vositalardandir, bunday imkoniyatni xar bir mashg'ulotda qo'llash uchun yangicha uslub va mumkin bo'lgan usullarini ishga solish hamda amalda qo'llay olish mahoratini o'rgatish :

- Zamon talabi bilan dars va mashg'ulotlarni noan'anaviy dars rejalari bilan o'tkazish :

- Jahon andozalariga xos yangi texnologiyalarini o'rganib, darsda qo'llay olish mahoratini egallashi kerak.

Yuqorida zikr etilgan talablarni o'zida mujassam etgan har qanday talabaga kelajak avlodimizni ishonib topshirsak bo'ladi.

Tasviriy san'at muallimi – ilmiy izlanuvchan ijodkor. Rassom o'qituvchilar qaerda, qanday o'quv maskanida ta'lim jarayonini olib borishidan qat'iy nazar pedagogik faoliyati ijodiy izlanishlar bilan boyitib borsa, shundagina yaxshi shogirdlar, haqiqiy rassomlarni shakllanitirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining o'z sohasidagi savodxonligi etarli darajada bo'lsagina o'quvchilar bilan yonma-yon o'tirib o'zlari amaliy namuna

ko'rsata oladilar. O'shandagina o'quvchilar o'z ko'zlari bilan murabbiy rassomning egallagan mahorat sirlarini amaliy ishlarida ko'rib ruhan his qiladi hamda san'atning nozik sirlarini tushunib etishishiga imkoniyatlari kengayadi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlari har tomonlama rivojlangan insonning tarbiyalashi uchun boy imkoniyatlar ochib beradi. Tasviriy san'at bilan shug'ullanish bolalarning aqliy va estetik jihatdan rivojlantiradi, atrof dunyoni tushunishiga ko'maklashadi, buyumlarni e'tibor bilan kuzatishga, ularning shaklini tahlil qilishga o'rgatadi. Tasviriy san'atdan savodni chiqarmasdan turib, kishi san'atni tushunishi ham, qadrlashi ham, undan huzur qilishni ham bila olmaydi. Bolalar tarbiyasida zamondoshlarimiz mehnatini go'zalligini ko'rsatishga, mustaqil davlat taraqqiyoti yutuqlarini o'rganish alohida o'rin egallaydi. Bu o'quvchilarning ijodiy aktivligini oshirishga ularning kuchini, ma'naviy quvvatini yangi hayot qurish uchun kurashga safarbar etishga ko'maklashadi.

Estetik tarbiya – bu o'quvchilarda hayotdagi, tabiatdagi, san'atdagi, fan va jamiyatdagi go'zalliklarni to'la-to'kis qabul qilish qobiliyatini tarbiyalashdir. Hayotdagi go'zal narsalar, aql, ruh, irodaga ta'sir qilib, insonning ruhiy olamini boyitadi.

Estetik tarbiya o'z ichiga badiiy, mafkuraviy, ma'naviy hamda axloqiy tarbiyani oladi.

Estetik tarbiya jarayonida kishining qarashlari, hissiyotlari, didi hamda ideallari shakllanadi: bu shakllanish mafkuraviy tarbiya, ijodiy fikrning rivojlanishi bilan mustahkam bog'langandir. Estetik tarbiya kishini olijanob, go'zal hamda insonparvarlik harakatlariga moyil qiladi.

Bugungi kunda madaniy va ma'naviy tarbiya o'z oldiga insonda mavjud voqelikni ijodiy o'zlashtirish qobiliyatiga ehtiyojini yaratishdan tashqari, balki unda go'zallik qonuniga asosan qayta qurish ehtiyojini ham tarbiyalashga qaratilgan. Kasb hunar kollejlari liseylarning vazifasi estetik tarbiyaning turli metodlari yordamida bolaning aql va vujudiga ta'sir o'tkazib, unda estetik hissiyotlarini paydo qilish orkali uni go'zallikka, tabiat ko'rinishlariga yaqinlashtirish, shuningdek bolaning ijodiy imkoniyatlarini, fikriy faoliyatini

rivojlantirib, inson faoliyatining turli sohalarida namoyon bo'lishiga ko'maklashishdan iboratdir.

Fizika – matematika fanlari doktori, professor A.A.Kitaygorodskiy, shunday yozadi: Turli- tuman ko'rinishlarga ega bo'lgan go'zallikni tushunish va sevish insonning ma'naviy boyishi uchungina emas, balki uning yaxshi ishlashi uchun ham kerakdir. Inson qaysi sohada ishlamasin, u adabiyotchi va matematik, geograf yoki ximikmi, u nafosat va go'zalliklarni ko'ra olishi va tushuna olishi kerak.

Har bir o'quvchini hayotda, davlatimizning moddiy va ma'naviy rivojlanishida faol ishtirok etadigan qilib tayyorlash uchun unga faqat bilim berib tarbiyalashgina kamlik qiladi, uning shaxsiy qobiliyatini rivojlantirish, yangilik yaratishni o'rgatish, go'zallik qonuni bo'yicha yashash va ijod qilishni shakllantirish lozim. Hayot go'zalligini ko'rishga intilish insonni olijanob qilib tarbiyalaydi, uning kundalik ishini estetik rohat-farog'at manb'aiga aylantiradi.

Bolalar ko'nglida go'zallik va yuksak g'oyalar hissini uyg'otishga da'vat etishda tasviriy san'at o'qituvchisining o'rni g'oyat kattadir. Bolalar ma'naviy didini rivojlantirish uchun o'qituvchi, avvalo, ularning e'tiborini hayotdagi go'zallikka qaratishga, go'zallikni payqash, his etish, qabul etish, huzurlanish, quvonishga o'rgatish kerak. Did insonning tug'ma xususiyati emas. U rivojlantiriladi, maktabda uni takomillashuviga yordam beruvchi birinchi inson tasviriy san'at o'qituvchisidir.

O'qituvchi bolalarga tabiatning rang-barang olamini, rang-birang shakllarini ko'rsatadi. Tabiat go'zalligi, ochiq havoda o'tkazilgan kunlar haqida xotiralar, ular hayotda ko'rib baxri-dillarini ochilgan, tasvirlash qiyin bo'lgan gulzorlarning ranglari - ularning ko'nglini shodixondan etgan, hayajonlantirgan narsalarning xotirasi uzoq vaqtgacha o'quvchi qalbida saqlanib qoladi. O'quvchilar naturadan manzara, daraxt shoxlari, yaproqlar, gullargning rasmini chizar ekanlar, ularning shakllarini o'rganar ekanlar, tabiatga, uning shakl va ranglari naqadar boy va turfaligiga amin bo'ladilar, tabiatdagi go'zallikka, voqea-hodisalarga mehr-muhabbatlari osha boradi. Maktabdagi rasm darslari tufayli kishi dunyonini haryoqlama ko'radigan bo'ladi, ularning kuzatuvchanligi rivojlantiriladi, mantqiy

fikrlashga o'rgatadi, ko'rgan narsani anglab etishga o'rgatadi.

Bolalar tasviriy san'at darslarida atroflaridagi yaqin turgan predmetlar ularning shakli, rangi, hajmi va boshqa o'ziga xos jihatlardagi xilma-xillik bilan tanishadilar. Bu tanishuv ulardagi ko'z xotirasini kuchaytiradi, buyumlar haqidagi aniq va to'la tasavvurlari paydo bo'lishiga yordamlashadi. Tasvir jarayoni o'quvchiga ilgari qisqagina nazar solib o'tgan buyumlarni endi chuqurroq o'rganishga imkon beradi.

O'quvchi rasm chizayotgan vaqtida buyumning formasi, ularning shakliy qurilishi, proporsiyasi, bo'shliqdagi holati, rangi, uning och-to'qligi, materialining qandayligi e'tibor bilan o'rganiladi, shu bilan ularni yanada samaraliroq, ko'p tomonlama, teran va aniq xis etishga ko'nikib boradi.

Tasvir chizishga o'rganish o'zaro bog'liq bo'lgan ikki masalani hal qiladi: o'quvchining ko'rish qobiliyatini o'stiradi, hamda tasvirlayotgan, ko'rayotgan narsa haqidagi tasavvurini oshirib uni chuqurroq anglab etishga o'rgatadi.

O'quvchilarning ko'rish qobiliyatini o'stirish deganda biz ulardagi bir maqsadga qaratib yo'naltirilgan kuzatishni tarbiyalashni: buyum va xodisalarini o'zaro taqqoslash, o'xshashlik va tafovutni aniqlash, ularning shakl va uslubiga qarab turkumlashtirishga o'rgatishni tushunamiz. Tasviriy san'at mashg'ulotlarining vazifasi jiddiy e'tibor bilan qarashga, fikrlashga, buyumlar shaklini aniq tahlil qilishga o'rgatishdan iboratdir. Rang-barang tassurotlarini mulohaza qilish, kuzatishlardan umumlashmalar chiqarish va to'g'ri xulosalarga kelish natijasida o'quvchilarning malaka va ko'nikmalari rivojlanadi, ularda yangi bilimlar egallashga intilish uyg'onadi.

O'quvchilarning ongli ko'rish, e'tiborini takomillashtirib borish natijasida diqqat – e'tiborning boshqa shakllarini, ya'ni maktab yoshdagi bolalar uchun zarur bo'lgan turlarni rivojlantirishga yordamlashadi. Chunki bu yoshdagi bolalarda odatda uyushmagan, beqaror e'tibor mavjud buladi.

Tasviriy va amaliy san'at fanlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda «Tasviriy san'at o'qitish metodikasi» badiiy grafika fakul'tetida o'rganiladigan asosiy kurslardan biri bo'lib, u bo'lajak o'qituchilarni amaliy

mashg'ulotlarda metodik jihatdan tayyorgarligini takomillashtirishning muhim omilidir. Bu amalda mashg'ulotlar II-IV bosqich talabalarini badiiy-kasbiy bilimini, malaka va mahoratini shakllantirishga hamda ularni maktab o'quvchilariga badiiy ta'lim-tarbiya berish jarayonida qo'llashga o'rgatishga qaratilgan.

«Metod» so'zi grekcha bo'lib, «Tadqiqot yo'li» «bilish usuli ma'nosini anglatadi. Pelagogika o'qitish metodlari deganda, maktab o'quvchilarning bilim, maxorat va malakalarini egallashida, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib topdirishda o'qituvchilarning qo'llagan ish usullari tushuniladi.

Metodika ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash usullarining mazmunining xususiyatlariga qarab chiqadi. Ma'lumki, maktabda o'qitishning xilma-xil metodlari qo'llaniladi. Bu erda ta'lim usuli, o'quv materiallarining joylashishi (o'quv, reja, dastur), ta'lim prinsiplari va yana (so'ngida), o'quv tarbiyaviy ishlarning umumiy maqsad va vazifalari eng muhim ahamiyatga egadir.

Metodika so'zi avvalo ta'lim va tarbiyaning samarali usullarini majmui ma'nosini bildiradi, mazkur metodik qo'llanma akademik kasb hunar lisey va kolejlarida tasviriy san'atni o'qitish metodikasining bir qator jihatlari ko'rib chiqiladi.

Tasviriy san'at o'qitish metodlari deganda o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash usullari natijasida o'quv materiallarini yaxshi bilib olish darajasiga erishish va o'zlashtirish darajasini oshirilishi nazarda tutiladi. Har bir o'qitish metodlari o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlarining mazmuni (hajmi)ga monand tarzida ta'lim maqsadiga, o'quvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlariga bog'liq. «Usul» iborasi pedagogik adabiyotlarida tez-tez uchraydi. O'qitish usuli – bu ta'lim-tarbiya alohida qismlari hisoblanadi, ularning yig'indisi o'qitish metodlariga kiradi.

Umumiy yo'nalishga qaratilgan ma'lum bir o'qitish metodlari va usullarining majmuasidan o'qitish tizimi tuziladi.

Tasviriy san'at o'qitish metodikasi pedagogik ilmiy fan sifatida tajribada sinalgan ishlarning nazariy qismlarini umumlashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan o'qitish metodlarini taqdim etadi. Metodika, asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va san'atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi. U tasviriy san'atni o'rgatish qonun qoidalarini ta'riflab beradi, kelajak avlodni tarbiyalashning zamonaviy metodlarini belgilaydi.

Amaliy metodika, ta'lim va tarbiyaning rivojlanish jarayonini o'rganadi. Pedagogik mahorat ko'nikmalarini o'rganish uni egallashga qaratilgan ma'lum iste'dod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar (moyilliklar) mavjud bo'lishini ta'lab etadi, chunki metodika fani san'at pedagogikasining mashaqqatli murakkab va juda ma'suliyatli sohasidir.

Demak, tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fani pedagogika ilmining o'quvchilarni tasviriy san'atga o'rgatish mazmuni, vazifalari va metodlarini o'qitishning mazmuni, vazifalarini va metodlarini aniqlovchi, ijodiy ishlardagi oqilona usullarini o'rganuvchi, ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalariga tayangan holda samarali o'quv jarayonini tashkil etuvchi, shakl va yo'llarini tadqiq etuvchi sohasidir.

Tasviriy san'at metodikasi metodika fanining boshqa sohalari kabi umumiy va xususiy turlarga ajratiladi.

UMUMIY METODIKA - o'quv faning nazariy qismini asoslariga qarashli savollarni va ko'pchilik fanlarga tegishli o'qitish usul va uslublarini qo'llanishlarini ko'rib chiqadi. Bular quyidagilar :

- tasviriy san'at fanining maqsad va vazifalari :
- tasviriy san'at fani dasturlarining tuzilishi va mazmuni :
- o'qitishning tashkiliy shakllari va metodlarini ishlab chiqish :
- ko'rgazmali metodik vositalarni tadqiq qilish va tanlash (o'quv ko'rgazmali qurollar va texnik vositalari) :
- tasviriy san'atning boshqa fanlar bilan bog'liqligi (adabiyot, musiqa, biologiya, tarix) :
- tushunchalarni, iboralarni ta'riflash va boshqalar.

XUSUSIY METODIKA – biron-bir o‘quv fanining o‘qitish uslubi nazarda tutiladi. - ko‘rgazmali qurollardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar beriladi :

- amaliy va ijodiy ishlarning mazmunlari aniqlanadi va x.k.

Hozirgi kundagi rasm o‘rgatish metodikasi birdaniga kelib, shakllangan emas, bunga qadar mazkur metodika shakllanishi va murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Respublikamizda tasviriy san’atni o‘rgatish metodikasining shakllanishida mahalliy olimlar, metodistlarning qator izlanishlari, o‘quv qo‘llanmalarining ahamiyati juda katta o‘rin tutadi. Badiiy pedagogika metodika sohasidagi so‘ngi yutuqlari ko‘rsatilgan va talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularni metodik bilim va mahoratlar bilan qurollantirish o‘qitish san’atini egallashiga yordam berishni o‘ziga asosiy maqsad qilib qo‘ygan.

O‘qituvchi tasviriy va amaliy san’at darslarining tashkilotchisi, rahbari va ilhomchisi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan o‘quv-tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga dastur asosida o‘qitiladigan tasviriy san’at mashg‘ulotlari narsaning asliga qarab tasvir chizish; xotira va mavzu asosida tasvir chizish ; dekarativ amaliy san’at va haykaltaroshlik : San’atni idrok qilish kabi turlarda olib boriladi. Qo‘yida biz tasviriy san’at faning turlarini ko‘rib chiqamiz.

O‘qituvchi tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarni dars mavzusiga aktivlashtirish uchun dars mavzusining mazmuni, hayotdagi ahamiyati va uni chiqish qoidalari tushuntirishi zarur. Ba`zida o‘qituvchilar tasviriy san’at darslarini tashkil etish uchun o‘quvchilarga dars mavzusi yuzasidan savollar berib, unga berilgan javoblarni to‘ldirish kabi vositalardan foydalaniladi.

O‘quvchilar dars va darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil ravishda bajarayotgan ishlari vositasi bilimga, malakaga, ijodiy ko‘nikmaga ega bo‘ldilar, o‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarning mustaqil ishlariga yordam berishi, rag‘barlantirish metodi asosida ilhomlantirish, yutuq va kamchiliklarni o‘z vaqtida ko‘rsatish, ularni o‘z kuchiga ishonchini mustahkamlashida rahbarlik qiladi.

Dars jarayonida har bir individual xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladigan turli yoshdagi yoshlar bilan ish olib boriladi. O‘quvchilar orasida ko‘rib

turgan narsalarni to'g'ri tasvirlay oladigan xotira asosida qiynalmay rasm chizadiganlar bilan bir qatorda, oddiy tasvirga qarab nusxa ko'chirishga ham qiynaladiganlar uchraydi. Bu borada biz ba'zi o'quvchilarning ko'rish qobiliyatining sustligi, rang sezmasligi kabi boshqa hollarini hisobga olishimiz kerak.

O'quvchilarning qobiliyat va xususiyatlariga qarab guruhlariga bo'lib ta'lim berish metodiga o'z vaqtida rus pedagogi Ushinskiy ijobiy baho bergan edi.

«Sinf bolalarini bir birdan kuchli bo'lgan bunday guruhlariga bo'lib o'tkazish zarur emas».- deb ko'rsatilgan edi.

Guruhlariga bo'lib o'qitish shuning uchun qulayki, kuchli o'quvchilarga qo'shimcha topshiriqlar beriladi, ular o'zlariga berilgan topshiriqlarni qiynalmay bajarib turishadi. Bo'sh, qiynaladigan o'quvchilar esa o'quvchilardan va kuchli o'quvchisidan o'rganadi. Bunday o'quvchilar tasvir chizishda surunkasiga orqada qoladilar, natijada ular o'qishga qiziqmay qoladilar. Bu o'qish ulardan ko'proq aqliy kuch sarflashni talab qiladi. Shularni bartaraf qilish uchun sinfda olib boriladigan individual ishni ayrim o'quvchilar bilan olib boriladigan individual ish bilan qo'shib olib borish kerak.

«Kuchli» biladigan o'quvchilarga «kuchsiz» bilimli o'quvchilarni biriktirib qo'yish ham yaxshi natija beradi. O'quvchilarning tasviriyl faoliyatini aktivlashtirishda, ayrim o'quvchilar bilan yakka tartibda munosabatda bo'lish va unga pedagogik ta'sir o'tkazish ham katta ahamiyatga ega.

Ta'limni individuallashtirish masalasi hozirgi davrda pedagog va psixolog olimlar va metodistlarni qiziqtirmoqda. M.N. Skatin, N.N. Rostovsev, M.I.Mahmudov, V.S.Kuzin, B.P.Yusupov, S.S.Bulatov asarlarida bu masalalar yoritilgan. Sinfdagi bolalar haqidagi dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lgandan keyin, o'qituvchi hamma bolalarning qobiliyat va malakalariga qarab quyidagi gruppalariga bo'ladilar :

1. Tasviriyl faoliyati yaxshi rivojlangan, kuzatuvchanligi, ijodiy tasavuri taraqqiy qilgan, tasviriyl san'at materiallarini o'zlashtirgan yoki tez o'zlashtira oladigan o'quvchilar. Bu 3 toifa o'quvchilarning har biri bilan alohida ishlab,

ularning barchasini darsga qiziqtirish uchun kuyidagi usullardan foydalanishi maqul bo'lar edi.

2. Kuzatuvchanligi, ijodiy tassavuri o'rtacha rivojlangan tasviriy san'at materiallarini o'qituvchi yordamida o'zlashtira oladigan O'quvchilar guruhi.

3. Kuzatish ko'nikmasi yaxshi rivojlanmagan, ijodiy tassavuri bo'lmagan, tasviriy san'at materiallarini o'qituvchilar yordamida qiyin o'zlashtiradigan o'quvchilar.

Bunday dars o'tish bizning fikrimizcha o'quvchilarning aktivligini oshiradi.

O'quvchilar bilan individual ishlashning ahamiyati katta . bu metod yordamida qoloqlarsiz o'qitish darajasiga etish mumkin. Bundan tashkari tasviriy san'at sinf xonalari etarlicha yorug' bo'lishi kerak. Yorug'lik normal bo'lmagan joyda ko'rish sezgilariga zo'r berish zararlidir. Bunday xollarda o'quvchilarning tez charchashlari oqibatida darsga bo'lgan qiziqishlari sustlashishiga olib keladi.

Narsani o'ziga qarab rasm chizish

NARSANING o'ziga qarab rasm chizish o'tiladigan tasviriy san'at mashg'ulotlarining asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Bu mashg'ulot jarayonida o'quvchilarning narsa va xodisalarning kuzata bilish qobiliyatlari rivojlanadi, xotiradan va tafakkurdan rasm chizish malakalari ortadi, narsalarning fazodagi holatlarini aniqlay bilish, ularning hajmi, shakli, rangini, shu'la-soyasi yordamida tekislikda tasvirlash tushunchalari o'sib boradi. Kuzatish jarayonida o'quvchilar narsalarning o'lchovlarini o'zaro solishtiradilar, ular o'rtasidagi farqni taqqoslash yo'llari bilan topadilar.

Narsaning o'ziga qarab rasm chizish darslari ikki bosqichda olib boriladi.

Birinchi bosqich --- bu hajmga ega bo'lmagan perespektiv qisqarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydigan tekis narsalar, ya'ni daftarlar, bayroqcha, papka, o'quvchilar sumkasi, bolta, arra, har xil daraxtlar barglari va shunga o'xshash boshqa narsalar rasmini old tomondan, frontal holatda chizdiriladi.

Ikkinchi bosqichda--- hajmli narsalar ya'ni mevalar, gul, hayvon, odam, uy anjomlari, qisqasi 3 o'lchovga ega bo'lgan (eni, bo'yi, kengligi) geometrik shakllar va narsalarni chizdirishdan iboratdir.

O'quvchilar dars jarayonida birinchidan rasm chizishning asosini o'rgansalar, ikkinchidan ijodiy qobiliyatlari o'sib, estetik jihatdan tarbiyalanib boradilar, I-II guruhlarda o'ziga qarab rasm chiziladigan narsalarni to'g'ri ko'rishga asosiy shaklning bo'yini eniga nisbatan qog'oz yuziga kompozision jihatdan to'g'ri joylashishini, bo'laklarning nisbiy o'lchovini ko'rsatib, ularning bir-biriga bog'likligini, ranglarini aniqlash va ularning o'ziga xos xususiyatlariga alohida ahamiyat beriladi. I-II bosqichlardagi tasviriy san'at darslarida tik, yotiq, qiya chiziqlarini to'g'ri chiza olishni, kvadrat, to'g'ri burchakli, to'rtburchakli, uchburchak, doira va boshqalarni tassavur qila olish, to'g'ri chiza bilish hamda chiziqlarni ko'z chamasida teng bo'laklarga bo'lish qobiliyatlarini o'stirib borish kerak bo'ladi. Chizilgan rasmni akvarel` guash`, bo'yoqlari bilan bo'yashdan oldin uning rangini to'g'ri aniqlab olish va shu rang nomini to'g'ri aytishga o'quvchilarni o'rgatib borish talab etiladi.

Buning uchun o'qituvchi maxsus tayyorlangan rangli plyonka, oyna yoki polietilin (sariq, qizil va zangori asosiy ranglar) materiallari orqali ko'rgazmali qurol tayyorlab o'quvchilar bilan savol-javob yordamida tanishib chiqsa yaxshi natijalarga erishadi. I-II bosqichlarda chiziladigan narsaning maxsus nusxasi katta o'lchovda bo'lib, yaxshi ko'rinadigan joyga o'rnatiladi. Agar chizdiriladigan narsa mayda o'lchovda bo'lsa (har xil barglar, gullar va boshqalar) ularning har bir partaga bittadan tarqatib chiqish lozim bo'ladi.

O'quvchilar narsani o'ziga qarab rasm chizganlarida chiziladigan predmetlar ular oldida shunday qo'yilmog'i kerakki, ya'ni perespektiv xodisalar aniq sezilmog'i kerak.

I-II boqichlarda ko'z bilan chamlalanadigan perespektiv xodisalarining elementar qoidalari bilan tanishtiriladi. Hajmli narsalar qalam, akvarel`, guash` bo'yoqlari bilan yorug'-soya yordamida qanday ko'rinsa shunday tasvirlash vazifasi qo'yiladi.

Narsalar shaklini, yoruglik manbaini hisobga olgan holda, ularning sirtida yorug` va soyalarning joylashuvi, narsa rangining yorug'lik tushishiga qarab o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlarni oladilar. Shu maqsadda sabzavot va

mevalarni alohida va to'p holdagi rasmlari chizdiriladi. Shuningdek, narsalarining shakli va nisbatlari proporsiyalarining o'zgarishini tasvirlay olish va ularning malakalarini o'stirish maqsadida oddiy geometrik shakllarni eslatadigan uy jihozlarining o'ziga qarab rasm chizadilar. To'g'ri to'rtburchak bilan chegaralangan narsalarni kengaytirish va o'stirish, hajmli narsalarni yorug'-soya yordamida tasvirlay olishni o'rgatish maqsadida o'quvchilarga nisbatan burchak ostida stolga qo'yilgan kitob, yashik, har xil qutilar, qush uyasi va geometrik shakllar rasmlari chizdiriladi.

Perespektiv xodisalarni ko'rgazma asosida o'quvchilarga o'rgatish dars jarayonida ancha qulaylik tug'diradi. Bunda san'at asarlari, sxemalar, plakatlar va modellardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan: Ch.Axmarovning «A.Navoiy» yoki Z.Inog'omovning «Choyga» asarlarini o'quvchilarga ko'rsatib, undagi perespektiv xodisalarni so'zlab berish mumkin.

Narsaning o'ziga qarab rasm chizish darslari tasviriy san'at predmeti kursida yakunlovchi bosqich hisoblanadi. Shuning uchun bu guruhlarda o'tiladigan darslar o'quvchilarni faqatgina nazariy mashg'ulotlarini boyitibgina qolmasdan, sistematik ravishda amaliy mashg'ulotlar o'tib ularning bilim malakalarini takomillashtirib bormoq ham kerak.

Perespektiv qoidasi va uni qo'llash usullarini faqat narsalarning o'ziga qarab rasmini chizish darslardagina emas balki xayoldan, tasavvurdan rasm chizish dars jarayonida rassomlar asarlari haqida suxbat o'tkazish mashg'ulotlarida ham o'quvchilarga o'rgatib, tushuntira borish katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar chiziqli prepektiva bo'yicha surat tekisligi markaziy ko'rish nuri, maydoni haqida bilimlar oladilar va bir yoki undan ortiq kesishish nuqtasiga ega bo'lgan ufq chizig'i haqida olgan ma'lumotlarini yanada kengaytiradilar.

Narsaning o'ziga qarab rasm chizish jarayonida o'quvchilarga odam, hayvon shuningdek qushlar turkumining o'lchov nisbatlari, umumiy o'lchovlar: kalla, qo'l, oyoq, tos va boshqa plastik anatomiya haqida tushunchalar beriladi. Bundan tashqari faktura haqida ma'lumot berib boriladi, masalan, yuzi gadir-budir bo'lgan narsalar bilan bir qatorda yuzasi yaltiroq bo'lgan shisha yoki sirli narsalarning

shakli chiziladi. Shuningdek, chizilayotgan narsani o'ziga o'xshatib, xarakterini topa bilish bilan birga uning fakturasini ham ifoda etish talab etiladi.

Narsaning o'ziga qarab chizilgan tasvirida estetik tomonga ko'proq ahamiyat beriladi. Narsaning o'ziga qarab rasm chizish darsi jarayonida har bir o'qituvchi mavzuga oid tasviriy san'at asarlarini keltirib unda rassom qanday tasviriy vositalardan foydalanganligi, uning kompozitsiyasi, asardagi ranglarning moslashuvi haqida chizilayotgan narsalarni taqqoslab ko'rsatsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu borada o'quvchilar faqat narsaning o'ziga qarab rasm chizishdagi malakalari oshib bormasdan balki san'atimiz namoyondalari ishlagan san'at asarlari namunalari bilan tanishib boradilar.

Masalan: biror sabzavot va mevalardan tashkil topgan natyurmortni o'quvchilar chizayotgan bo'lsalar shunga mos yoki shu mavzuda bor narsalardan chizilgan o'zbekistonlik rassomlarning asarlaridan rangli reproduksiyalarni o'quvchilarga ko'rsatish samaralidir. Masalan, rassomlar A.Abdullaev E.M.Kovolevskiy, Z.Inog'omov, Yu.I.Elizarov, M.Nabiev va boshqa rassomlarning asarlari reproduksiyalari shunga qo'l kelishi mumkin. Reproduksiyalar xayoldan va narsaning o'ziga qarab rasm ishlashda o'quvchilardan bevosita kuzatishni, predmetlar, ekran vositalari, kitobga ishlangan illyustrasiyalar, hujjatli materiallar, komp'yuter texnikasi vositalaridan keng foydalanishni talab etadi va bular badiiy obrazni yaratishda o'quvchilarga katta yordam beradi.

Mavzu asosida rasm chizish

Mavzu asosida rasm chizish darslari tasviriy san'at fanining qiziqarli mashg'ulotlaridan biridir. Bu mashg'ulotlarda o'quvchilar o'zlari bilgan ta'sirlangan voqea va xodisalarni xayoldan tasavvur qilib tasvirni ishlaydilar, badiiy adabiyotlarga illyustrasiyalar ishlaydilar. Ayniqsa o'quvchilarining kundalik hayotlaridan olingan mavzular, hayvonlarning hayotiga oid mavzular, adabiy asarlar (ertak, masal, hikoya, she'r) mavzuli rasm darslarining manbai bo'lib xizmat qiladi. Mavzu asosida tasvir ishlash darslarda bolalarning fantaziyasi va

tasavvuri aktiv faoliyatga aylanadi. Mavzu asosida rasm chizish mashgʻulotlarining oldida turgan maqsad va vazifalar pedagogikaning ilmiy asoslari bilan belgilanadi.

Mavzuli rasm chizish bolalar yosh xususiyatni eʼtiborga olgan holda eng sodda boʻlgan mavzular tavsiya etiladi. Bunda yil fasllarga mos keladigan mavzular «Togʻda kuz», «Kuzgi ishlar», «Yangi yil bayrami», «Qishki oʻyinlar», «Maktab bogʻida», «Navruz», «Oʻzbekiston mustaqilligi kuni», kabi.

Dastur asosida ancha murakkab yaʼni «Hosilni yigʻib-terib olish», «Maktab tajriba uchaskasida», «Bahor kelmoqda», «Molxona», «Oʻzbekistonda hosil bayrami», «Mustaqillik bayrami», «Oʻzbekiston konsitutsiyasi kuni», «Hayvonat bogʻida», «Respublikamiz mehmonlari» kabi va boshqa mavzular bilan bir qatorda, badiiy asarlarga, ertak, hikoya, masallarga illyustrativ rasmlar chizadilar.

Kompozisiya yaratishning tayyorgarlik bosqichida oʻquvchilar narsaga qarab rasm chizish perespektiva, rangshunoslikdan olgan bilimlardan keng foydalanishlari kerak. Oʻqituvchi vazifani tushuntirishda oʻquvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uygʻotishi lozim.

Birgina mavzuni turli xil mazmunda, har birini oʻziga xos koʻrinishda talqin qilgan holda tasvirlash mumkin. Masalan: «Bizning qurilishlarimiz» mavzusida oʻquvchilar kuzatishlari asosida turli konstruksiyadagi zamonaviy oʻyinlarni, har xil mashinalarni, turli ishlarni bajarayotgan odamlarni tasvirlashlari mumkin.

Tajriba shuni koʻrsatadiki, oʻqituvchi mavzuni qanchalik keng va toʻliq tushuntirsa bolalar rasmlari shunchalik mazmundor va sifatli chiqadi. Har bir mavzuni chizishdan oldin oʻquvchilar bilan maʼlum vaqtgacha ekskursiyalar oʻtkazish, mavzu asosida ishlagan asarlarini tahlil qilish ham maqsadga muvofiqdir. Rasm chizish jarayonida chizish qiyin boʻlgan obrazlar, masalan, odam, hayvon, murakkab texnika va x.k.z ni chizish yoʻllari haqida maʼlumot berish, sxematik tasvirini chizib koʻrsatish kerak.

Bezakli – dekorativ tasvir ishlash darsi.

Dekorativ rasm darslarida oʻquvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashning imkoniyatlari ancha kattadir. Chunki bunday darslardan oʻquvchilar xalq amaliy-

dekorativ san'atining asl nusxalari bilan tanishadilar, uning ustalari kabi bolalar ham shu sohada ijod qiladilar. Amaliy san'atdagi ritm, rang, simmetriya kabi ifodalilik vositalari haqida fikr yuritadilar. Dekorativ tasvir chizish darslarida bolalar har qanday naqshning, asosan tevarak atrofdagi narsa va xodisalardan olinganligini anglashlari lozim o'quvchilar naqsh namunasidan ko'chirish darslarida naqsh chizishning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishadilar, ranglarning nomlarini o'rganadilar. Bo'yoqlarni aralashtirib ishlash ustida ish olib boradilar. Naqsh namunalaridan ko'chirish va mustaqil naqsh chizish darslarida o'quvchilar ko'z bilan chamalashni o'rganadilar. Tasviriy san'at xalq amaliy san'ati va badiiy hunarmandchilik an'analari bilan birga hozirgi zamon texnika estetikasi va badiiy bezash asoslari bilan bog'lanadi. Naqsh bilan bezatilgan buyumlarni o'qiy olishga o'rgatish amalga oshiriladigan asosiy vazifalardan biridir. Naqsh namunasidan ko'chirish va mustaqil naqsh chizish ijodiyoti namunalaridan ko'rsatish, naqsh san'ati asarlarini ko'chirish va tahlil qilish orqali o'quvchilarning badiiy didi o'stiriladi.

Mustaqil naqsh chizish orqali bolalarning ijodiy qobiliyati, fantaziyasi, tafakkuri rivojlantiriladi. O'quvchilarga o'zbek amaliy-dekarativ san'ati va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida tushuncha berish va ularning estetik idrok etish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida suhbatlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Suhbatda bolalarning e'tibori turli idishlarda, har xil bezatilgan kiyimlar ajoyib ishlangan o'yinchoqlar va boshqalarga qaratiladi.

Dekorativ grafik ishlarning vazifasi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish dars jarayonida olgan bilim va malakasini hayotda amaliy faoliyatda qo'llay olishga o'rgatishdir. Dekarativ amaliy faoliyat darslari tasviriy san'at predmetini tekislikda tasvirlash, plastilin bilan ishlash, san'atni idrok qilish, kompozision faoliyat va boshqalarga tayangan holda o'tiladi.

Haykaltaroshlik

Tasviriy san'atning turlaridan yana biri haykaltaroshlik bo'lib, u ham boshqa tasviriy san'at turlari qatori hayotni real aks ettiradi, dunyoni bilishga insonga yordam beradi, uni g'oyaviy va estetik jihatdan tarbiyalaydi.

Haykaltaroshlik, jumladan, dumaloq haykal rassomning san'atidan shunisi bilan farq qiladiki, haykalni har tarafdin ko'rish, ishlash mumkin, bu uning iflodlagini oshiradi. O'quvchilar bu darsda tekislikni tasvirlash va dekorativ amaliy faoliyat darslarida olgan bilimlariga tayanib haykallar ishlaydilar. Bolalar yoshligidanoq haykaltaroshlik sirlari bilan tanishadilar. Shuning uchun ham maktablarda tasviriy san'atning bu turi (lepka) plastilin yoki loy bilan ishlash bo'yicha dars o'tish programmashtirilgan. Bu o'quvchilarning badiiy didlarini san'atga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi, tabiatda, insonlarda bo'lgan individual xususiyatlarni tezda anglab olishga yordam beradi.

Plastilin va loydan shakllar yasash darslarida o'quvchilar san'atning muhim turi bo'lgan haykaltaroshlikning elementar asoslari bilan tanishadilar. Bu darsda o'qituvchi bolalarga haykaltaroshlik mohiyati, ahamiyati haqida, haykal ishlashning o'ziga xos tomonlari haqida ma'lumot berib boradi.

Haykal ishlashda loy, plastilin, qisman yog'och va tabiiy shakllardan foydalaniladi. Masalan: yong'oq po'chog'i, dub daraxtining mevasi, turli xil shoxchalar, ildizlar va x.k. Loy va plastilindan haykalchalar yasash, ayniqsa boshlang'ich sinfda ishlanganda, har bir buyumning konstruktiv tuzilishi, hajmini chuquroq xis etishga yordam beradi. Bulardan tashqari bu mashg'ulotlarda bolalarning qo'l barmoqlari, mushaklari rivojlanadi, fantaziasining yanada kuchayishiga xizmat qiladi.

San'atni idrok qilish.

Bolalarning san'at idrok etish bilimi tasviriy san'at darslarida asta - sekin kengayib boradi. Bu esa o'quvchilarning amaliy ishlarda borliqdagi va san'atdagi go'zallikni idrok etishga ongli ravishda yondoshish imkonini beradi. Darslarda tasviriy san'atning tur va janrlari haqida tez-tez suhbat o'tkazish, mashhur san'atkor va ularning etuk asarlarini tahlil etish bolalarning badiiy didini o'stirishga, go'zallikni sevish va tushunishga yordam beradi.

Tasviriy san'at bo'yicha suhbat o'tkazish uchun maxsus soatlar ajratilmaydi. Suhbat darslari tasviriy san'at turlari tekislikni tasvirlash, plastilin bilan ishlash, dekorativ amaliy san'at bilan qo'shib o'tiladi.

Tasviriy san'atda suhbat uchun ajratilgan vaqt 15-20 minutdan oshmasligi lozim. Suhbat darslarining temasi har xil bo'lishi mumkin. Rassomlar, haykaltaroshlarning ijodlari, tasviriy san'atning tur va janrlari to'g'risida suhbatlar o'tkazilishi mumkin. Suhbatda o'quvchilar rassomlarning hayoti va ijodini, asarlarini tahlil qilishga o'rganadilar. San'at asarlarini idrok etish bo'limida o'zbekiston xalqlari hayoti va ijodini aks ettiruvchi asarlarga ko'proq vaqt ajratish maqsadga muvofiqdir. Tasviriy san'at asarlari bilan o'quvchilarini tanishtirishda, ularga yaqin va tevarak tarofdagi hayotdan olingan mavzu asosida o'tkaziladi. Bular tabiat manzarasini aks ettirgan iste'dodli o'zbek rassomlarining, O'zbekiston tabiatning manzarasi, ko'ko'par tog'lari, keng quloch yoygan yam-yashil dalalarini, qurilish inshootlarini rang-barang yorqin bo'yoqlarda ifoda etilgan asarlari orqali tanishtirish mumkin.

Dars jarayonida o'zbek tasviriy san'atini va boshqa qardosh xalqlar tasviriy san'ati bilan taqqoslash usulini qo'llab ko'rish maqsadga muvofiq. U.Tansikboev, N.Koraxon, R.Temurov, I.Xaydarov, N.Qo'ziboevlarning chizgan rasmlari bilan tanishayotganimizda rus manzarachi rassomlari I.Levitan, A.Savrasov, va I.Shishkinlarning asarlari namunasini taqqoslab ko'rsatishimiz mumkin. Suratlarni solishtirish maboynda o'quvchilar tabiat go'zalligini xis qilishi, kishilarning qadimiy va hozirgi hayoti haqida tassavvurga ega bo'ladilar. Tasviriy san'at metodlarini ilm dargohlarida o'rgatilishini biz ilk martoba tarixda qadimgi misrliklar faoliyatida ko'rishimiz mumkin.

Bolani tasvirlashga o'rgatishning asosiy sabablaridan biri o'qitish uslubi ieroglofik xususiyatga ega bo'lganligidir. Chunki shu yo'sinda biror bir ma'noni anglatishini faqat tasvirlar orqali amalga oshirishini talab etardi.

Qadimgi Misrda yoshlarni maktabda o'qitish tizimi juda qattiqo'llik bilan hattoki majburlash darajasida olib borilgan. Belgilangan maktab qonuniga amal qilmagan o'quvchi jazolanardi. Qadimgi manbalarda yozilishicha, maktab qonun-qoidalarga bo'ysunmagan shogird gavron bilan savalanib, so'ngra uzoq vaqt qorongi zulmatda saqlangan ekan. O'sha davr maktab qonuni quyidagilarni talab etardi : «Kundalik o'qishda faol va atrofdagilarga muloyim bo'l. Hech qachon

dangasa bo'lma, yo'qsa kaltaklanasan!>). Maktablarga rasm chizishga o'rgatish dastlab qadimgi Misrda paydo buldi. O'qitish rassom – pedagoglar tomonidan aniq ishlab chiqilgan va tasdiqlangan metod hamda qonunlar asosida olib borilgan. Shuni ta'kidlash lozimki, Misrliklar rasm chizish va uning nazariy qonunlariga asos solganlar. O'sha davr maktablarida yoshlarga ta'lim berishning aniq ishlab chiqilgan didaktik tamoyillari bo'lmagan. Yoshlarga rasm chizishni o'rgatish naturani kuzatish, tahlil etish, atrof tabiatdagi voqea va hodisalarni kuzatish orqali emas, balki oldindan ishlab chiqilgan andozalar asosida olib borilgan.

Misrliklardan farqli o'laroq qadimgi Yunon rassomlari tasviriy san'atni o'qitish borasida ta'lim-tarbiyaga o'zgacha yondoshib, uni tubdan o'zgartirib boyitdilar. Ular yosh rassomlarni ko'proq tabiatni o'rganishga va uni ajralmas bo'laklaridan biri bo'lgan inson go'zalogini yuksak darajada tasvirlashga chaqirganlar. Ular qo'lagan metodlar rassomlarning borliqdagi xodisalarini insonning tabiat bilan chambarchas uyg'unligini kengroq bilib olishlariga yordam beradi, narsalarning shakli, konstruksiyasini elementar tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatlarini hamda kuzatuvchanligini o'stirish imkonini beradi va tasviiriy san'at darslari shu tarzda tashkil etiladi.

Tasviriy san'at asarlarini o'quvchi faqat o'qituvchi ko'magidagina o'zlashtirish mumkin. Ta'limning dastlabki qadamlaridanoq unga ustoz va rahbar darkor. Masalan, naturdan rasm chizish, o'quvchi unga qanday qilib kirilmog'i kerakligini, ishini nimadan boshlash zarurligini, qanday qilibbir varaq oq qog'ozdagi ishning uddasidan chiqmoq kerakligini bilmaydi. Tajribali pedagog unga o'zi ishini alohida bo'laklarga qanday qilib bo'lish va ularni qanday izchillikda hal qilish mumkinligini ko'rsatib beradi.

Naturadan rasm chizishni o'rgatish pallasida pedagog dastavval naturani kuzatish va qabul qilish masalasiga e'tibor beradi.

To'g'ri ko'ra olish qobiliyati insonda tabiiy bo'lib, u rivojlanmog'i zarur. Buning uchun bolalik chog'dan narsalarni-diqqat-e'tibor bilan ko'zdan kechirishga, uning shaklidagi, rangidagi, proporsiyasidagi o'ziga xos xususiyatlarga e'tibor berishga, buyumlar qurilishini taxlil qilishga o'rgatmoq

kerak.

Naturani taxliliga kirishmasdan turib, o'qituvchi bolalarning e'tiborini mazkur buyumga qaratib, quyidagiday qator savollar beradi: buyum shaklining xususiyati qanday? Proporsiyalar qanday, ya'ni buyumning balandligi enidan ziyodmi, yo aksinchami? Buyumga yorug' qanday tushmoqda? Natura bilan shu tariqa tanishish uni keyinchalik o'rganib borishda yo'llanma bo'ladi.

Pedagog asta-sekin chuqurroq kuzatishlarga o'tadi: u natura ko'rilishining taqsimlanishi qonuniyatini, perespektiv xodisalar qonuniyatini tushuntiradi.

O'rganilayotgan ob'ektni aniq tasavvur etish uchun o'quvchi dastavval uning shaklini butunligicha qamrab olishi, so'ng mazkur buyumning barcha belgilarini, uning barcha muhim detallarini, xususiyatlarini aniq ilg'ab olmogi va shu bilan birga mazkur elementlarning o'zaro joylashishi, ya'ni naturaning qurilish birligini yorqin tasavvur qilmog'i zarur.

O'qituvchining tushuntirishlarini sinf doskasida rasmlar bilan ko'rsatmali qilib izohlab berilsa yoki metodik qo'llanmalarda foydalanib tushuntirilsa hammaning anglab olishi osonlashadi.

O'quvchi natura bilan tanishib olgandan keyin rasm chizishga o'tishi mumkin bo'ladi. Pedagog uning oldiga o'quv vazifalarni qo'yadi, ma'lum sistemaga ko'ra tasvirni chizish jarayonida uning kuzatishlarini tashkil qiladi, natura ko'rilishidagi eng muhim xususiyatlarga uning e'tiborini kuzatadi.

Pedagog o'quvchi fikrining faoliyatini diqqat bilan kuzatib boradi, doim uni to'g'rilab, qo'llab-quvvatlab turadi. «O'quvchi uchun o'ylash» kerak emas, ayniqsa uning o'rniga rasm chizishning hojati yo'q, u o'z fikri, ko'nikmalarini mashq qildirsin, lekin uning ishini ham nazardan chetlatib bo'lmaydi. O'quvchi mushkullariga duch kelganida unga o'z vaqtida ishora, yordamchi savol bilan ko'maklashishi kerak.

Boshlang'ich kurslarda bolalar naturani tasvirni bunyod etish jarayonida taxlil qilishga o'rganmagan bo'lib, rasmni dastlabki taassurot bo'yicha bajaradilar. Ular naturaga kamdan kam murojat qiladilar, o'z rasmlarini natura bilan taqqoslamaydilar ham desa bo'ladi. Ularning o'quvchilar bolalar diqqatini yuzaki

kuzatishdan naturani qanday taxlil qilishga yo'llagan holda ko'niktirib o'rgata boradi. Rasm chizayotib o'quvchilar shoshmasdan, extiyotlik bilan bir qiyinchilikdan ikkinchisiga o'tib bormoqlari zarur.

Agar o'quvchi nato'g'ri chizsa, pedagog darhol uning xotasini ko'rsatib, tuzatishni maslahat beradi. O'quvchi tasvirni ilgarigiday, qalamning uchini qog'ozga asta tegizgan holda, iloji boricha o'chirg'ichdan foydalanmasdan tuzatadi, rasm juda kirlangan bo'lsa, uni tuzatib bo'lmaydigan xoldagina o'chirg'ich ishlatiladi.

Xatolarni tuzatish texnikasini o'qituvchi shogirdining o'zi chizgan rasmini ko'rsatib beradi. Shu bilan birga xatoni tuzata turib o'quvchiga batafsil tushuntirish kerak, toki u o'z xatosining sababini va uni tuzatish metodikasini yaqqol anglab olsin. Amalda bu qoidaga ko'pincha amal qilinmaydi. O'qituvchi «nato'g'ri» deb qo'yaqoladi, xato nimaligini va uni qanday qilib kuzatmoq kerakligini tushuntirmaydi.

Xatoni o'z vaqtida ko'rsatish va o'z vaqtida yordam berish kerak. Bu borada o'qituvchi kechikar ekan, keyinchalik o'quvchiga xatosini tuzatishda ko'maklashish ancha mushkul bo'ladi.

O'quvchilar endi rasm chiza boshlaganda o'quvchi sinfda o'z ishini qanday qilib yaxshiroq uyushtirish mumkin? Tushuntirgandan so'ng 2-3 minut o'tgach u xonani aylanib chiqadi va o'quvchilarning ishini kuzatadi. Shunday qilib, o'qituvchining birinchi aylanib chiqishida har bir o'quvchi pedagogdan ishini davom ettirishda to'g'ri ko'rsatma oladi. Auditoriyani aylanib chiqqan o'qituvchi yana o'sha eng oldin ko'rsatma bergan o'quvchining yoniga qaytadi.

Pedagog hamma bolalarda tipik xatoni sezib qolsa, u ishni to'xtatib, barcha o'quvchilarning diqqatini ana shu xotoga jalb etadi. Bunday hollarda tushuntirishni doskaning yonida turib olib borgan ma'qul. O'qituvchi dastlabki xatoning sababini batafsil tushuntiradi, so'ng auditoriya doskasida uni qanday tuzatish kerakligini ko'rsatib beradi.

O'quv materialini bayon qilish jarayonida o'qituvchi oldida doim o'quvchilar uni tushunib olishlari uchun qilish kerak bo'lgan barcha ishni bajarish

vazifasi turadi. O'qituvchining har bir so'zini o'quvchilar anglab olmoqlari lozim. O'quv materiali shunday bayon etilsinki, bolalar uni qiynalmasdan o'zlashtirib olsinlar. Buning uchun esa o'quvchi tushunmaydigan, u birinchi bor eshitayotgan so'zlar va iboralarni ishlatmaslikka harakat qilish kerak. Agar o'qituvchi bunday so'zlarni ishlatmaslikka harakat qilish kerak. Agar o'qituvchi bunday so'zlarning ishlatmaslikning iloji bo'lmasa (masalan, ton, kolarit, lessirovka), u shu erdayoq ularning ma'nosini o'quvchilarga tushuntirib, bu haqda aniq va yorqin qilib aytib berishi lozim.

Material bayoni quruq va zerikarli bo'lib qolmasligi ham ahamiyatlidir. O'quvchilarni qiziqtirib, maftun etmoq kerak.

O'qituvchi materialni oddiy va marokli tarzda gapirar ekan, uni odatda, butun sinf jiddiy e'tibor bilan tinglaydi. O'qituvchi temani noaniq, chalkashtirgan tusda aytib bersa, o'quvchi temani noaniq, chalkashtirgan tusda aytib bersa, o'quvchilar asta-sekin uni eshitmay qo'yadilar.

Pedagog praktika davrida biz o'quvchilar va o'qituvchini ko'p kuzatib, shunday xodisalarning shoxidi bo'lishiga to'g'ri keladi. O'qituvchi sinfga kirar ekan, darhol hamma bolalarning diqqatini o'ziga tortadi. Endi ular o'qituvchining ixtiyorida va bundan keyingi vaziyat muallifning bolalar diqqatini shu holatda saqlay olishga bog'liq bo'ladi. Tajribali o'qituvchi darhol bolalarning e'tiborini o'ziga qaratadi va bir daqiqaga ham vaziyatni o'zgartirmasdan dars temasiga o'tadi. Kam tajribali o'qituvchi esa ko'pincha o'z o'quvchilarning diqqat e'tiborini bo'lib qo'yadi, yo o'quvchilarga dars temasini zerikarli tarzda e'lon qiladi, yoki materialni shu qadar zavqsiz ayta boshlaydiki, bolalar unga quloq solmay qo'yadilar.

Ko'p xollarda dars bolalarning emas, balki o'qituvchining aybi bilan yomon o'tadi. Masalan, o'qituvchi san'at haqida suxbat dars o'tkazar ekan, ko'plari tinglamayotganini sezadi. U darsni bo'lib hammani tartibga chaqiradi va so'zida davom etadi.

Yana o'sha natija. O'qituvchi bu bolalarni hech narsa bilan qiziqtirib bo'lmas ekan deb o'ylay boshlaydi. Lekin buning sababi o'qituvchi bolalarga

notanish ibora va terminlarni ishlatishida edi.

Bu terminlarning mazmunini tushuntirib berishni xayoliga ham keltirmasdi. Bu narsa, albatta, bolalarni charchatar, tushunarli bo'lmagan gaplar ularni qiziqtirmasdi.

Yuqorida aytilganidek, dekorativ va tematik rasm chizish darslarida o'quv jarayonini uyushtirish metodikasiga alohida e'tibor bilan qarash lozim. Ko'pchilik o'quvchilar bu mashg'ulotlarni passiv tarzda o'quvchilarni o'z xollariga tashlab qo'ygan xolda o'tkazishadi. Ular bolalarning ana shu mashg'ulotlarda mustaqil ijodiy ish olib bormoqlari zarur degan fikrga amal qiladilar. Masalan, agar o'quvchilar o'qituvchi bergan sxema bo'yicha naqshlar chizib, asosan xalq ijodiy namunalaridan nusxa ko'chirsalar, keyingi topshiriqlarni, ba'zi bir o'quvchilarning fikriga ko'ra, ular mustaqil ravishda, pedagogning yordamisiz bajarishlari lozim.

Bu esa noto'g'ridir. O'qituvchi o'zini chetga olib qolmasdan, doim o'quvchilarni boshqarib borishi, ularga murakkab ijodiy masalalarda yordam berishi kerak.

Mavzu asosida rasm chizish darslarida ayniqsa kompozisiyadan dars berish metodikasi masalalariga alohida e'tibor berish kerak.

II-BOB. TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASINING DIDAKTIK ASOSLARI

2.1. Tasviriy san'atda hozirgi zamon didaktik prinsiplari

Maktablarda ta'lim-tarbiya ishlarini samarali bo'lish mashg'ulotlarning to'g'ri mazmunli va izchil olib borishga bog'liq.

Ta'limning tarbiyalovchilik xususiyatini ta'lim mazmuni bilan, ta'lim metodlari bilan amalga oshiriladi. Har bir fan o'qituvchisi kabi san'at o'qituvchisi ham pedagogika nazariyasi va uning prinsiplarini mukammal o'rganishlarini talab qiladi.

Didaktika – pedagogika ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganiladigan qismidir. Didaktika grekcha so'z bo'lib, sabok bo'ladigan so'zdir, ya'ni didaktika – ta'lim nazariyasi demakdir.

Didaktika xususiy metodikalar bilan mustahkam bog'langan holda, barcha o'quv fanlari uchun qonun va qoidalarni belgilab beradi.

Umumiy didaktika asosida ba'zi o'quv predmetlari bo'yicha xususiy didaktikalar kelib chiqadi. Ular metodika deb ataladi. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi, matematika, adabiyot metodikalari va tasviriy san'at fani asoslarini o'rganishda quyidagi pedagogikaning nazariy uning prinsiplari katta ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim-tarbiyaning birligi.

Ta'limning ilmiylik prinsipi.

Ta'limda ko'rsatmalik prinsiplari.

Ta'limda onglilik va aktivlik prinsiplari.

Ta'lim protsessida o'quvchilarni yosh individual xususiyatlarini hisobga olish.

Tasviriy san'atning boshqa fan materiallari bilan bog'likligi.

Ta'lim prinsipi tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonining xarakteri, yo'nalishi, o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarni o'zlashtirishning, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishning qonun va qoidalarini o'z ichiga oladi. Bizning davrimizda maktab ta'lim

sistemasida onglilik va aktivlik prinsiplari muhim ahamiyatga ega. Hozirgi maktab ta'limi o'quvchilarining ongli, mustaqil, aktiv faoliyatiga suyanadi.

Ta'limda onglilik o'quvchilarning ilmiy bilimlarini asosli ravishda chuqur va anglab o'zlashtirishlari, nazariy bilimlarni amalda qo'llay olishlarini o'z ichiga oladi.

Maktablarda o'quvchilarga beriladigan bilimlar hozirgi zamon bilimlar darajasida bo'lish, o'quvchilarga ularni muayyan sistemada bo'lishni ta'min etishi lozim.

O'qituvchining vazifasi ob'ektiv jihatdan narsa va xodisalar tasvirini ifodalashda realistik san'atining mohiyatini ilmiy ravishda ochib bera olishi kerak.

Maktabda tasviriy san'at dars predmeti boshqa fanlar qatori o'zining mustaqilligiga ega. Shuning uchun tasviriy san'at predmeti bir qator ilmiy asoslarga yondoshiladi.

Ta'lim-tarbiyaning birligi, prinsipi.

Maktab sharoitida ilg'or o'qituvchi bo'lish uchun hozirgi zamon didaktik prinsiplarini egallab uni ijodiy ravishda amaliyotda qo'llay bilish maqsadga muvofiq.

Hozirgi pedagogika ta'lim-tarbiyaning mohiyatini, didaktik prinsiplarini ochib beradi, shuning uchun birinchi o'rinda siyosiy g'oyaning maqsadga yo'nalishi va ta'lim-tarbiyaning birligidadir.

Umumta'lim maktabning vazifasi yosh avlodni tetik ruhda tarbiyalab, ularning dunyoqarashlarini ma'naviy shakllantirishdadir.

Tasviriy san'at o'qituvchisining vazifalari ta'lim-tarbiyada yaratilgan prinsipni tasviriy san'at asarlar g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini ko'rsatishdadir.

O'qituvchilarda ta'lim-tarbiya berish ta'limotlari hamda davlatimizning ko'rsatmalari asosida yosh avlodni har tomonlama kamolatga etgan ma'lumotli va zamon talabga javob beradigan, yuksak darajadagi fazilatlarni o'zida mo'jasmalashtirgan kishilar qilib tarbiyalashdir.

O'quvchilarga tasviriy san'at bo'yicha ta'sir ko'rsatish kuchidan foydalanishda, tasviriy san'at o'qituvchisi keng imkoniyatga ega.

Yosh o'quvchilariga tasviriy san'atni targ'ib etishimizda, uning maqsad va vazifalarini, jamiyatimizning qurilishdagi ahamiyati, san'atning haqqoniyligi va xalqchilligi, san'atning realistik prinsiplari asosida yaratilishini ochib berishimiz lozim.

Tasviriy san'at o'zining yorqin obrazi bilan bolalar hayotida, haqqoniyligi, go'zallik vastasida, asarda tasvirlangan badiiy obrazlarda hayotni real ochib beradi.

U insonga emotsional ta'sir ko'rsatib, o'quvchilar sezgisini o'stiradi, badiiy didini shakllantiradi. Ana shunday sifatlarga qarab, tasviriy san'at o'qituvchisi tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlab undan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

San'atning insonga ta'sir qilish kuchiga suyanib, o'qituvchi bolalar bilan har tomonlamatarbiyaviy ishlarni olib borishi mumkin.

Bolalarni san'at bilan yaqinlashtirar ekanmiz, avvalo biz ularga san'atning maqsad va vazifalarini ochib berishimiz kerak va asosan realistik san'at prinsiplari, xalqchilik va uning prinsipi, jamiyat qurilishida tasviriy san'atning ahamiyatini tushuntirib berishimiz kerak.

Hayotni adabiy obrazlarda aks ettira turib, unga estetik baho berib, tasviriy san'at hayotda go'zallikni ko'ra bilish uchun kuchli quroldir. U kechagi haqiqatni bildiribgina qolmay, balki ertangi hayotni ham to'g'ri ifoda etadi.

Agar o'quvchilarning o'zida ijodiy qiziqish katta bo'lsa, uz fikr muloxazlarini, xissiyotlarini ifoda eta olishsa atrofdagi har bir narsaga estetik jihatdan qaray bilishsa estetik g'oyaviy tarbiya juda muvaffiqiyatli keladi.

Estetik tarbiya bilan shug'ullana turib, bo'lajak o'qituvchi, maktab o'quvchilarining san'atni to'g'ri tushunib kamolatga erishayotganini yaxshi bilishi kerak.

Tasviriy san'at o'qitish bolalarga atrof-muhitni tushuna bilishlari go'zallikni ko'ra olishda yordam beradi.

Ilmiylik prinsiplari.

O'quvchilarning dunyoqarashlarining tarkib toptirish va ularni amaliy faoliyatga tayyorlashda ilmiylik prinsipi asos hisoblanadi.

Buning asosiy negizi ob'ektiv qonuniyatdan iborat bo'lib fan asoslarini

chuqur o'zlashtirmay turib, o'quvchilarda dunyoqarashni vujudga keltira olmaydi.

Ilmiylik prinsipi maktab ta'limi mundarijasiga fan tomonidan aniq berilgan o'quv materialini kiritilishini /bu talab maktab programmalarini va darsliklari tuzish vaqtida shuningdek o'qituvchi har bir dars uchun material tanlayotganda hisobga olinadi/ hamda o'quvchilarning yoshi uchun munosib bo'lgan ilmiy tushunchalar va terminlar bilan qurollantirishni taqozo qiladi. Programmalarda va darsliklarda terminologiyani egallashdagi tartib va izchilik belgilanadi.

Bu tartibga qat'iy rioya qilish hamda o'quv jarayonida qabul qilingan terminlarnigina joriy etish muhimdir.

Ilmiy nazariyalar bilan tanishtirish talabi ko'proq darajada o'rta va yuqori sinflarga taaluqlidir, ammo boshlang'ich maktabda ham o'qituvchi darslar mundarijasiga ilmiy bilimlar joriy etib, bu ishga muayyan xissa qo'shadi. O'quvchilarga rus tili grammatikasi, tasviriy san'at, tabiatshunoslikdan ba'zi ilmiy tushunchalar beriladi.

Ilmiylik prinsipi boshlang'ich maktab o'quvchisidan maktab o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqiga alohida e'tibor berishini talab qiladi. O'qituvchi bolalarning ayrim masalalarini ilmiy asosida tushunishda hech qanday chetga chiqishlariga yo'l qo'ya olmaydi, hamda ilmiy tushunchalar va terminlarni to'g'ri ishlata bilishga o'rgatadi.

O'z predmetini yaxshilab o'rgangan, bolalarning psixologiyasini ta'lim va tarbiya nazariyasini biladigan o'qituvchigina o'qitishning dastlabki yillaridanoq o'quvchilarni ilmiy bilimlar dunyosiga olib kira oladi, ularda bilimlarni, fanni egallashga zo'r intilish uyg'ota oladi.

Tasviriy san'at o'qituvchisining vazifasi, o'quvchilarga tekislikda predmetlarni tasvirlash qonunlarini va tevarak-atrofdagi tutgan o'rnida tushuncha berish, o'quvchilar asosiy prinsiplar bo'yicha fikrlashlari, realistlik san'atga ob'ektiv qarashlari va narsa va hodisalarga xaqoniy tasvirlashlariga yordam berishlari kerak.

Tasviriy san'at ta'limining o'qitilishida o'qituvchi turli shakllari tuzilishini konstruktiv jihatdan uning tabiatdagi go'zalligini ochib berib o'quvchilarning

estetik didlarini rivojlantirish lozim.

Rasm ta'limining ilmiylik prinsplari asosida perespektiva, yorug' soyalar va ularning qonunlari, anatomiya va boshqalar yotadi.

Masalan: rasm ta'limida perspektiva qonunlari qurilishlarini o'quvchilarga tushuntirib va ularning perespektiva xaqida aniq tushunchaga ega bo'lib, uni amalda qo'llay olishga erishmoq kerak.

Predmetlarni konstruktiv qurilishini o'quvchilarga albatta taxlil etib berish lozim.

Rasm individual bo'lishi mumkin, u holda ham hamma o'quvchilarni ishlari tekislikda perespektiv qonunlar asosida qurilish lozim.

Shunday qilib, badiiy jarayonda ham ilmiylik prinseplari zarurdir.

O'qitish jarayonida maktab o'quvchilari real hayotni to'laroq aks ettiradigan, fan tomonidan aniq belgilangan bilimlar sistemasini yaxshi o'zlashtirishlari lozim bo'ladi.

Pedagogning masalasi qonunlarini, ya'ni ularni tekislikda shunday ifodalash lozimki, o'quvchilar chizayotib realistik san'at metodlari haqida fikr yuritishga odatlanishi shart.

Rasm chizishning asoslari perespektiva, rangshunoslik, soyalar nazariyasi kabi fanlar mo'jassamlangan. Perespektiv rasm chizishga o'rgata turib, bolalar diqqatini perspektiva qoidalariga rioya qilishga jalb etamiz. +++uvchilar bu darslarda buyumning konstruktiv formasini aniq to'g'ri chiqarishga odatlanadilar.

Rasm chizishning texnikasi har xil bo'lishi mumkin, lekin tuzish qoida va qonunlari o'zgarmaydi.

San'atda materialistik va idealistik nuqtai nazar qanday aks etishi haqida alohida to'xtab o'tishimiz kerak. Realistik san'at bu haqiqatdagi bor nrsani real ijodiy ifodalashdir. Rassomning tabiatdaga bo'lgan munosabatning bahosidir.

Formalistik san'at-rassom turli xodisalarni yuzaki ifodalashdir. Formalistik rassomning asarida realizmdan yiroq sub'ektiv hayot muhimdir.

Real haqiqat rassom realistikasining dastlabki momentidir. Realistik san'at ob'ektiv dunyoni birinchi o'rinda ko'rdi, shu bilan birga materiya birlamchiligini

va ongning ikkilamchiligini ko'rsatdi.

Naturaga qarab rasm chiza turib, biz faqat buyumni tekshiribgina qolmay, uning ichki strukturasini ham bilishga qiziqamiz.

Buyumning tashqi ko'rinishi uning ichki tuzilishidan aniqlanadi.

Masalan, skelet ko'zga ko'rinmaydi, lekin tashqi formani to'g'ri chizishimiz uchun juda muhimdir, shunday qilib, chiza turib odam dunyoni o'rganadi, uni analiz qiladi. Real haqiqatni idrok etish jarayonida ilm va san'atning asosidir.

Rasm chizishni o'qitishning ilmiylik prinsipi realistik san'at metodlarini egallashdagina emas, kuzatish va qiziquvchanlikni rivojlantirishda ham ahamiyati katta.

Tashqi muhit bilan tanishishda uning qonunlarini o'rgana bilishda o'quvchilarni aktiv bo'lishga o'rgatadi. Har bir pedagogga ma'lumki, bolalarni o'ylamay naturadan ko'chirma qilishdan saqlash qiyin. O'ylamay chizishdan saqlay olish usullaridan biri: tadqiqot qilish harakteriga ega bo'lgan masalani o'rta qo'yishdir.

Akademik litsey, kasb-hunar kolleji ishlarida ilg'or o'qituvchi bo'lish uchun hozirgi zamon didaktikasini egallashi va uni ijodiy ravishda amalda qo'llay bilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki ta'lim va tarbiyaning mohiyatini quyidagi didaktik sistemadagi prinsplar ochib beradi. Ta'lim-tarbiyada o'quvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda mutaxassislikning maqsadga intilish, yosh avlodni mustaqillik ta'limotlari ko'rsatmalari asosida har tomonlama ma'lumotli o'zligini anglashlik, xisssiyotlarini o'zida mujassamlashtirgan kishilar qilib tarbiyalash. Shuning uchun avvalo, tarbiya ishlarida o'zlikni anglash g'oyaviylikda alohida e'tibor berib kelinmoqda. O'quvchilar yoshlarga tasviriy san'at bo'yicha ta'sir kuchidan foydalanishda, tasviriy san'at o'qituvchisi keng imkoniyatga ega. Biz o'quvchi yoshlarga tasviriy san'atni targ'ibot etishimizda uning maqsad va vazifalaridagi katta ahamiyatga ega bo'lgan san'atning realistik prinsipi asosida yaratilishini ochib berishimiz kerak. San'at asarlari o'quvchilarga xayajonli ta'sir ko'rsatib, inson sezgisini o'stiradi fikrini shakllantiradi. Ana shunday xislatlarga ko'ra tasviriy san'at o'qituvchisi tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlab, undan unumli

foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Hammamizga ma'lumki, faoliyatimizda ilmiylik prinsepi eng muhim o'rinlardan biri hisoblanadi. Chunki o'quvchi, yoshlarga beriladigan barcha bilimlar ilmiy asoslangan bo'lib, u amaliyot bilan chambarchas bog'langan xulosadan iboratdir.

Tasviriy san'at o'qituvchisining vazifasi o'quvchi, yoshlarga tekislikda narsalarni bo'yoq bilan tasvirlash qonunlarini va ularni tevarak-atrofdagi tutgan o'rinini o'quvchi yoshlarga ularni real tasvirlay olishlariga yordam berishi kerak. O'qituvchi o'quvchi, yoshlar oldida ketma-ketlik topshiriqlar sistemasini qo'yib, rasm ta'limining asosiy tuzilish qonunlarini tavsiya etmog'i lozim.

Tasviriy san'at darslarini o'qitishda rassom-o'qituvchi, turli shakllarni tuzilishi konstruktiv jihatdan tabiatning go'zalligini ochib berib, o'quvchilarda estetik didlarini rivojlantirishi kerak.

Tasviriy san'at ta'limida ko'rgazmalilik prinsipi .

Asosan o'quvchi yoshlar ko'rgazmalilik prinsiplarida vosita yordamida aniq tushunchalarga ega bo'lib boradilar. Predmetga qarab, uni tuzilishi xislatlarini aniq ko'radilar. Naturaga qarab rasm ishlashning o'zi ham ko'rgazmalilikdir. Naturadan rasm ishlash davomida shaklni kuzatishda his-tuyg'ular, farqlashlar yuzaga keladi. Ana shuning uchun ham o'quv jarayonida naturadan foydalaniladi. Pedagogikaning vazifasi o'quvchi, yoshlarga diqqat-e'tiborni bir joyga jamlashni o'rganish, ishga mustaqqil ravishda yondoshtshga o'rgatish. Shuning uchun pedagog har bir natura postanovkasini jiddiy ravishda o'ylab ko'rishi kerak. Naturani kuzatishda ko'rsatmaliliklardan ham foydalanib boriladi. Bunda karton va boshqa materiallardan foydalaniladi. Ko'rgazma ham metodik tomondan o'quvchi, yoshlarga tushunarli bo'lishi kerak. Masalan, talabalarga geometrik jismlarni ishlayotganilarida uning konstruktiv tuzilishiga, sxemalarni ko'rsatish va uni chizish, ko'rgazmalardan foydalanish juda o'rinlidir. Bu holda o'quvchi, yoshlar tez fikrlab naturani chizish yo'llarini o'rganib oladilar.

Ta'lim sistemasida ko'rgazmalilik prinsipi juda muhim ahamiyatga ega. Pedagogika klassiklari ta'limning ko'rgazmali bo'lishiga oid qimmatli fikrlar

berganlar. Buyuk pedagog YAn Amas Komenskiy, Pestolitssi, ayniqsa ulug' rus pedagogi K.D.Ushinskiyning ta'limini ko'rgazmali bo'lishi haqida aytganlari muhim ahamiyatga ega va u hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qatmagan.

Hozirgi pedagogika tarixiy pedagogik nazariyalariga tanqidiy yondoshib tajribalar va yutuqlarga asoslangan holda ko'rgazmalilikning ilmiy asoslarini ishlab chiqadi va uni amalda qo'llanishning yo'l-yo'riqlarini belgilab berdi.

Ta'limning ko'rgazmalilik prinsipi boshqa didaktik prinsiplardan ajratgan holda talqin qilib bo'lmaydi. U didaktikaning boshqa prinsiplari, ayniqsa ta'limda onglilik va aktivlik, mustahkam va puxta o'zlashtirish kabi prinsiplar bilan mustahkam bog'liqdir.

Talimning ko'rsatmalilik prinsipi o'quv materialini konkret obrazlar orqali bevosita o'quvchilarning idrok qilishlarini ta'minlashga qaratilgan prinsip bo'lishi bilan xarakterlanadi.

«Bu /ko'rgazmalilik/ shunday ta'limki, - u mavhum tasavvur va so'zlarga emas, balki bolalar bevosita idrok qilgan konkret obrazlarga asoslanadi. Bu obrazlarni bolalar o'qituvchilarining rahbarligi ostida o'tish protsessining o'zida bilib olishganmi, ilgari mustaqil kuzatish natijasida bilib olganmi, bari bir» !

Ko'rgazmalilik prinsipi o'quvchilarni ishonarli bilimlar bilan qurollash idrok eta bilish manbai bo'lgan buyumlarning o'ziga murojot etishdan iboratdir.

Naturaga qarab rasm chizishning o'zi ko'rgazmali o'qitish metodidir. Naturaga qarab rasm chizish protsessi buyumni ko'ra bilish, xis qilish, kuzatishdan boshlanadi.

Ko'rgazmalilik naturani kuzatish va uni analizini to'g'ri talqin qilinishi bilan bevosita bog'liqdir. Bu buyumni va xodisalarni yaxshi tushunishda ta'sir qiladi, shu bilan birga, tasvirni qog'oz sathida to'g'ri ifodalashdagi sifatini ham yaxshilaydi.

Fizika va geometriya o'qituvchisi tajriba bilan o'z fanini tushuntirishga tirishganidek tasviriy san'at o'qituvchisi ham xuddi shunday modellarining formasini ko'rsatish kerak. Ko'rsatmalilikning hamma xillari o'quvchiga formaning strukturasini nimadan iboratligini to'g'ri ko'rishga, tushunishga yordam

beradi.

Maktab ta'limida o'quvchilarining o'quvchi materiallarini fakt, narsa, xodisa va voqealarning konkret obrazini idrok qilish, sezish orqali ro'y beradi. Ayni bir vaqtda ko'rgazmali materiallar sezish ob'ekti bo'lib xizmat qiladi.

Binobarin, ko'rsatmalilik orqali idrok qilish murakkab psixik protsessdir. U ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm-maza bilish, mustaqil harakat va boshqalar sezgi organlarining alohida-alohida va bir yo'la bir ob'ektiv ustida bir necha sezgi organlarini safarbar qilishni talab qiladi.

Kuzatilayotgan ob'ektning xarakteri yoki o'quv materialining xususiyatiga qarab idrok qilish turlicha bo'lishi mumkin: hayotdagi narsa, xodisa va voqealarni yoki o'quv materiallarini to'g'ridan to'g'ri kuzatish orqali bevosita idrok qilish, ilgari sezilgan va idrok qilingan narsalar va o'quv materiallarining obrazlarini qaytadan esga tushurish, tasavvur qilish.

Narsa, xodisa va voqealar yoki o'quv materiallarining tasviri ifodalangan ko'rgazma materiallarini namoyish qilish yo'li bilan idrok qilish. Ta'limda qo'llanilayotgan ko'rgazma qurollar o'quvchilarning qanchalik yaqqol va konkret obrazli idrok etishni ta'minlasa va kuzatilayotgan ob'ektga mumkin qadar ko'proq sezgi organlari safarbar qilinsa, o'quv materiallari shunchalik tez, qulay va oson o'zlashtiriladi. Bu esa o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Ko'rgazma materiallar orqali o'quvchilar ob'ektiv borliqdagi narsa, xodisalar va voqealar bilan, ularning xususiyati, belgilari va bir-biri bilan bog'lanish vositalari bilan tanishadilar.

Mavxumiy xodisalarining konkret obrazlar orqali idrok qilish natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikr qilish faoliyatlari rivojlanadi. Ayniqsa, biror o'quv material xususiyatlarini mustaqil fikr yuritish taqqoslash, analiz qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarish orqali aniqlab, tushunib, o'zlashtirishlariga qaratilgan sxema, tablitsa, diagramma kabi materiallar ustida ishlash muhimdir.

Ko'rgazmalilikni yuqoridagicha tashkil qilish o'quv materialini ongli, mustaqil va aktivlik bilan o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Ko'rgazmalilikning samarali natijalar berishi uchun uning boshqa tomonlari

xam nazarda tutilish lozim. Birinchidan, ishlatiladigan ko'rgazmali qurollar har bir sinf o'quvchilarining saviyasi, yosh va umumiy harakter xususiyatlariga mos keladigan bo'lishi lozim.

Ikkinchidan, foydalaniladigan ko'rgazma qurollar o'tilayotgan dars temasining harakter xususiyatlariga mos keladigan temaning mazmunini ochib berishga yordam beradigan bo'lishi kerak. Darslarda ko'rsatma materialdan ortiqcha foydalanish tavsiya etilmaydi. Ko'rgazmali qurollar ko'payib ketgan paytda taassurotlarining ko'payishi, fikrda qayta ishlashni qiyinlashtiradi, hamda o'quvchilar bilimlarining sifatiga putur etkazadi.

Inson bilish faoliyatida xissiy obraz qanday rol o'ynashini atroflicha tushunishga, aniq fikrlashdan abstrakt fikrlashga, xissiy obrazga o'tishini anglashga imkon beradi.

O'quvchilarning rivojlanishidagi aniq obrazli bilan mustaqil jarayon ham, abstrakt fikrlarining shakllanish vositasi ham bo'lishi mumkin.

Ta'limning ko'rgazmaliligi termini bolaning rivojlanishidagi xissiy bilish boyligi va uning ahamiyatini ifodalay olmaydi. Ko'rsatmali o'quv qurollari o'quvchining xissiy bilishini tashkil kilish tomonlaridan biridir. Ular o'quvchining bilish faolitiyadagi xissiy va aqliy bilishning o'zaro murakkab dialektik ziddiyatli bog'lanish momenti, xolos.

Shaxsni garmonik ravishda rivojlantirish, o'quvchilarining aqlini o'stirishning murakkab vazifalari o'qituvchidan bolaning xissiy bilishini moxirona yo'lga quyishni talab qiladi.

O'qitish protsessidagi bilish faoliyatini shu asosida boshqarish o'quvchilarning aqlini o'stirish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Ko'rgazmalilik prinsepi o'qitish maqsadlariga mos bo'lib, materialining mazmuni bilan belgilanadi. Bu materialni o'rganish esa o'quvchilarni chinakam ilmiy va hayotiy muhim bilimlar bilan qurollantirishga undaydi. Ko'rsatmalik bu bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirib olishga hamda ularning hayot bilan, mehnat praktikasi bilan bog'lanishiga yordam beradi. Mashg'ulotlarda turli xil ko'rgazmali qurollarni qo'llash o'quvchilarning fikrlash faoliyatini aktivlashtiradi, ularning

diqqatini safarbar etadi. Shuning uchun ko'rgazmalilik vositalari o'qitishning hamma bosqichlarida o'quvchilarining yangi materialini idrok qilishlarida, bilimlarni mustahkamlashda, tekshirish hamda amaliy faoliyatda va ishda qo'llanishda, mehnat ko'nikmalari va malakalarini hosil qilishda tatbiq etiladi.

Ta'lim protsessida ko'rgazmalilikdan foydalanishda bir qator metodik talabalarga rioya qilish kerak.

Birinchidan, ko'rgazmali qurollarning u yoki bu xilini tanlash darsning maqsadini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Ikkinchidan, ko'rgazmali qurollar bilan ishlaganda o'qituvchi o'quvchilarning bu qurollarini idrok etishga raxbarlik qilishlari, ularning diqqat e'tborini o'rganilayotgan buyumning asosiy va muhim tomonlariga qaratishlari, o'quvchilarning mumkin qadar ko'proq aktiv va mustaqil ravishda ishlashlari uchun sharoit yaratishlari kerak.

Uchinchidan, darsni ko'rsatmali qurollar bilan to'ldirib yubormaslik, ulardan ta'lim maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan miqdorda foydalanish lozim. Agar darsda bir necha ko'rgazmali qurolni ko'rsatishga to'g'ri kelsa, ularning hammasini birdaniga emas, balki ehtiyojga qarab ko'rsatish kerak. Ko'rgazmalilik prinspidan yana biri, u ham bo'lsa o'qituvchini chizgan rasmlari. Birinchidan, o'qituvchi o'zi chizib ko'rsatgan rasmlarida kerakli bo'lgan rasm texnika o'quv materiallaridan qanday foydalanish kerakligini haqida tushuntiradi.

Bu borada o'qituvchining sinf doskada bo'r /mel/ bilan chizgan rasmlari alohida o'rin egallaydi. Sinf doskasida rasm chizishni o'ziga xos xususiyati bo'lib buni tushuntirayotgan materialni tez va sodda qilib 2-3 minut ichida sxematik ravishda chizib ko'rsatish maqsadga muvofiq. Ayrim o'qituvchilar sinf doskasida chizayogan rasmlarga 10-15 minut sarflashadi, shu bilan birga ular o'quvchilarni vaqtlarini oladilar.

Ikkinchidan, o'qituvchi o'quvchilarning rasm daftarlarini chetiga chizib ko'rsatishi. Bunda biz o'quvchilarni ishga nazar tashlab ko'pchilikni fikrini chalg'itmasdan ayrim o'quvchilarni ishini ko'rib chiqamiz va tuzatish kiritamiz.

Sim va boshqa narsalardan ishlangan karkasli modellar konstruktiv jihatdan

ishlangan va bo'yalgan qog'ozli ko'rsatmalar;

Yorug' va soya, perespektiva qoidalarini asoslab ishlangan maxsus ko'rgazmalar;

Turli shakllarning qonunlashtirilgan sxematik tasvirlari;

Metodik jihatdan ishlangan ketma-ketlik tartibi;

Tasviririy san'at namoyondalarining rasm va reproduksiyalari;

O'qituvchining ko'rsatmasi, qog'oz va sinf taxtasi kabilar.

Bularning hammasi o'quvchi, yoshlarga naturani ko'rish va uni chizish yo'llarini o'rganishga yaqindan yordam beradi. YA.A.Komenskiy – «ko'rgazmalilik prinspi – didaktikaning oltin qoidasi», - deb bejiz aytmagan.

Chunki ko'rsatmali qurol o'z xolicha qolib ketmasligi uni so'z bilan isbotlashni takoza etadi.

Tasviriy san'at predmetlaridan qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollarni quyidagicha gruppalariga ajratishi va ularning ta'lim tarbiyadagi maqsadlariga to'xtalsak:

a) naturaga qarab rasm ishlash darslarga bog'lik bo'lgan ko'rgazmalar /yassi predmetlar, daftar, kitob, bayroqchalar/ hajmga ega bo'lgan predmetlar, meva va sabzavot mahsuloti, geometrik jismlar, maktab va o'quv qurollari, uy va ro'xg'or buyumlari, odam, qush va hayvon turlari va boshqalar;

b) narsa, predmetlarni konstruktiv kurilishlari jihatdan hamda perespektiv va rang qoidalari asosida ishlangan ko'rgazmali qurollar;

v) tablitsa va sxemalar. Perespektiva qoida va qonunlarini tushuntirish uchun ishlangan poezd yo'li, katta ko'chalar, metro ichi va boshqalarga qarab, metodik tomondan ishlangan chiziqli yoki rangli ko'rgazmlar;

g) kartina reproduksiyalari.

O'quvchi haykaltaroshlik; grafika, rangli tasvirlangan asarlarni yaratgan taniqli rassomlar haqida ma'lumotlardan foydalanish zarur.

d) pedagogning chizma rasmlari.

Sinf taxtasida o'qituvchi tomonidan qo'yilgan natura predmetlarni kompozitsiya perespektiva tomonidan sinf taxtasi yoki varaqda xomaki rasmlarni

chizib ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari turli rangli qog'ozlarga chizib ko'rsatish mumkin. SHuning uchun o'quvchilar naturadan ko'ra bilishlari, natura detallarini taxlil eta bilib, naturani obrazli qonun qoidalar asosida ishlay bilishlari, bo'yashda umumiydan detallashtirishga va yana umumiyga o'tish kabilarni talabalar amalda qo'llay bilishlari maqsadg muvofiq qilib qo'yadi. Etapli ko'rsatmalar qalam va akvarellardan ikki predmetdan tashkil topgan ketma-ketlilik, ko'rsatma odatda 4 etapdan tashkil topishi mumkin. I etapda natyurmortni kompozitsion tuzilishi, natyurmort predmetlarini ustki o'ng va chap chetki qirralarini aniqlab qog'oz satxiga umumiy joylashishi belgilanadi.

Zamonaviy hamda jahon andozalariga mos mutaxassislar tayyorlab o'qitish faoliyati. II etapda natura predmetlarini bir-birlariga bo'lgan nisbatlari aniqlab olinadi.

III etapda natura predmetlarini perespektivada qisqarishlari hamda ularni konstruktiv qurilishi, har bir predmetning harakterlarini makonda ko'rsatadi. IV etapda ishning tamomlash jarayoni ko'rsatilib so'ngi etaplarda esa naturani ranglar bo'yicha ishlanganligi va boshqalar ko'rsatiladi.

Turli geometrik jismlar konus, silindr hamda to'g'ri burchakli shakllardan tashkil topgan predmetlarda yorug'-soyalarni belgilash bo'yicha ishlangan holda o'qituvchining ko'rgazmali qurollar katta ahamiyatga ega.

Odam, qush va hayvon kabi boshqa murakkab narsalarning konstruktiv qurilishlari bo'yicha ishlangan tablitsalarni o'quvchilarga ko'rsatishi zarur hisoblanadi.

Turli tuman ishlangan ko'rgazmali qurollarni ok vatman qog'ozda bajarilishi planshetlarga qo'yib uni o'quvchilarga ko'rsatishda yaxshi natijalarga erishilganligi o'qituvchilarni ish tajribalardan ko'rinib turibdi.

Tasviriy san'at ta'limini o'qitishda dars samaradorligini yanada oshirish, omillaridan biri texnika vositalaridan foydalanishdir. Bular o'z navbatida talabalarni bilim darajasi o'sishida katta ahamiyatga egadir.

Ta'lim onglilik va aktivlik prinsplari.

Pedagogika fanida aktivlik va onglilik asosiy pedagogikaning prinsiplaridan

hisoblanadi. Onglilik aktivlik va mustaqil ishlash hamisha o'quv materialini yaxshi egallashga olib keladi. Bundan tashqari onglilik va aktivlik o'quvchilar olgan bilimlarni chuqurroq o'rganishda zarur bo'ladi, ishga qiziqish uyg'otadi, ijodiy ishlashga chorlaydi.

Bu prinsip o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va aktiv egallab olishsin ijodiy tashabbuskorlik keng dunyo qarash tarkib topadigan bo'lsin. Faqat shunday o'kitish yosh avlodni ijodiy mehnatga layoqatli jamiyat qurilishiga aktiv ishtirok etuvchi shaxsni tayorlash imkonini beradi.

O'qitishdagi onglilik prinsipi o'quvchilarning o'quv ishlarini konkret maqsadlarini aniq tushunishi, o'rganilayotgan xodisa jarayonlarni va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni tushungan holda o'zlashtirib olishini, olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilishini taqazo etadi.

O'qitishdagi onglilik o'quvchilarning o'qishga ma'suliyatini sezgan holda munosabatda bo'lishini, o'quvchining topshiriqlarini o'z vaqtida aniq, mustaqil va ijodiy ravishda bajarishga harakat qilishga ham yo'llaydi.

O'quvchilarning aktivligi ularni nazariy materialni egallab olishida va tasviriy san'at xonalarida hamda tabiatni kuzatish natijasida bajargan vazifalarida namoyon bo'ladi. Aktivlik o'quvchilarning o'quv va mehnat faoliyatidagi mustaqilligini rivojlantirish bilan mustahkam bog'langan.

Onglili va aktivlik prinsiplarini amalga oshirishda o'quvchilar o'rganishga kirishgan fan yoki uning bilimining maqsadi hamda vazifalarini ularga ochib berishdan, kasbiy tayyorgarlik uchun uning amaliy ahamiyatini ko'rsatishdan boshlanadi.

Ta'limning samaradorligi o'qituvchining o'z amaliy ishida bolalarni tasviriy san'at darslarida izchil va muntazam qiziqtirib borish usullariga juda xam bog'liqdir.

Bilimga qaratilgan jarayonlar etarli darajada aktivlashgan va ruxiy holat aktiv bo'lgan vaqtdagina o'quv materialini o'zlashtirish mumkin. Ruxiy voqelikning oynaviy aksi, emas, balki aktiv ifodasidir. Ruxning faol in'ikosi tashqi

omillar ta'sirida paydo bo'ladi, o'z moxiyatiga ko'ra u o'quvchi ichki holatining, o'quvchidagi bilish kuchlari va shaxsiy hislatlarning ifodasidir.

O'qituvchining vazifasi o'quvchining bilim olishiga bo'lgan intilishidan foydalanish, unda bilishga qiziqishni shakllantirish va mustahkamlashdir.

O'qituvchining vazifasi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim olishidagi umumiy aktivligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ularni tasviriylar san'atga ijodiy munosabatda bo'lishiga mustaqillikka va ishchanlikka odatlantirishdir. O'qituvchi bolalarning aktivligini oshirish uchun kerakli savollar berishi zarur. SHu bilan birga, bolalarni sistemali mustaqil ishlashga o'rgatish kerak. Uyga beriladigan vazifa hamda darsdagi topshiriqlar harakterga jihatdan har xil bo'lishi mumkin, naturadan faqat qalam bilan chizish, yoki bo'lmasa akvarel guash bo'yoqlari bilan yorug'lik va soyalar yordamida chizib, o'quvchilar to'g'ri bo'yash yoki shtrixovka bilan ifodalashga harakat qiladilar, har biri mustaqil va aql bilan ishlaydi.

O'quvchining vazifasi - o'quvchining fikr yuritishi va rivojlantirishini qo'llab-quvvatlab kuzatib borishdir.

O'quvchi faqat og'zaki tushuntirib, ko'rsatibgina qolmay o'quvchilar bilan bir-birini tushunishga, qiziqtirishga intilishi kerak. SHu ikki momentning qo'shilishi murakkab jarayon hosil qiladi. bu esa o'qituvchidan katta tajriba talab qiladi.

Ta'limda onglilik prinsipi, dastavval, aqliy fikr qilish faoliyatidagi aktivlikka bog'likdir. Tafakkur qilish borasidagi esa bayon qilinayotgan o'quv materiallari yoki tevarak atrofni o'rab olgan borliqdagi narsa, xodisa, voqealar ustida fikr qilishdir. Aktiv fikrlashda, ya'ni taqqoslash analiz va sintez qilish faoliyatini aktivlashtirishga qaratilgan bo'lmog'i zarur.

O'qituvchi tasviriylar san'at darslarida o'quvchilarni darsda tmasiga faollashtirish uchun dars mavzusining mazmuni, hayotdagi ahamiyati va uni chizish qoidalarini tushuntirish zarur. Ba'zida o'qituvchilar o'quvchilarni faollashtirish uchun ularga dars mavzusi yuzasidan savollar berib, unga berilgan javoblarni to'ldirish kabi vositalaridan ham foydalandilar.

O'quvchilar dars va darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil ravishda bajarayotgan ishlari vositasida bilimga, malaka ijodiy ko'nikmaga ega bo'ladilar, o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning mustaqil ishlariga yordam berishi, rag'barlantirish metodi asosida yutuq va kamchiliklarini o'z vaqtida ko'rsatish, ularni o'z kuchlariga ishonchini musahkamlash kabi vazifa yuklanadi.

Tasviriy san'atdan suhbat darslarida o'quvchilar kinofilmlarda tasviriy san'at namoyondalarining hayoti va ularning yaratgan asarlari bilan batafsil tanishadilar.

Bunda natura predmetlari konstruktiv jihatdan ko'rilishi, perespektiva rangshunoslik kabilarga oid ko'rgazmali qurollar bilan bir qatorda ko'rsatilishi mumkin.

Darsda texnika vositalaridan foydalanish o'quvchilarni dars mavzusi va texnika vositalariga bo'lgan malakalarini oshirish.

O'quvchilarga puxta bilim berishda ularning o'z ish joylarini tashkil etish katta ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchi yil davomida o'quvchi, yoshlarni sistematik ravishda ularni darsga tayyorgarliklarini kuzatib boradi.

Talabalarning darsga tayyorgarliklarini doim kuzatib boradi. Talabalar o'quv qurollarini doim darsga olib kelishlari o'qtirildi.

Faollik, mustaqillik prinsipi.

O'qitish faolitada faollik va mustaqillik muhim o'rinlardan hisoblanadi. Tasviriy san'at ta'limda bu qonun hisoblanadi.

Tushunish borasining o'zi ham onglilik, faollik, «mustaqillik» kabilardan tashkil topadi. Bular bir birlari bilan chambarchas bog'lik bo'lib onglilik o'z vaqtida o'quvchi, yoshlardan faollikni talab qiladi, shunga ko'ra ko'pchilik mutaxassislar amaliy mashg'ulotlarda faollik va mustaqillik muhim deb hisoblaydilar. Tasviriy san'at darslarida talabalarni dars mavzusi va uning ahamiyati, chizish yo'llari, perespektiv qoidalari bilan tanishtirib, tushuntirib borish kerak bo'ladi.

O'quvchi, yoshlar mustaqil ishlarda albatta bilim malakalariga ega bo'lishilari, mustakil ishlarda ularga alohida, alohida yordam berib va turli ishlarda

bilim, yutuq va kamchiliklarni ko'rsatib talabalarini o'z kuchlariga qarab bilimli qilish va olgan bilimlarini amalda qo'llash kabilarga chorlab borish kerak va zarurdir.

Ta'limning sistematik va ketma-ketlik prinsipi

Pedagogika fani har bir narsani yangiligi bilan isbotlangan. Har bir fandagi izlanishning bilimga asoslanganligi, har bir narsaning doim oddiydan murakkabga o'tish holatini kuzatilib kelinadi. SHuning uchun o'tilgan dars mavzularini yangi dars mavzulariga bog'lab ketma-ketlikni kengaytirib uni chuqur loyihalab borish kerak.

Sistematik va ketma-ketlik prinsiplarini tuzilishi ham yangi material aniqligi bilan birga to'ldirib borilishini taqozo etadi.

Tasviriy san'atda ta'limning sistematik prinsipi juda muhim rol o'ynaydi. Bu asosan qoidaga asoslanib hozirgi dars mavzusini o'tilgandan so'ng keyingi dars mavzusiga bog'lanadi. CHunki, yangi mavzu o'tilgan dars mavzusiga nisbatan murakkablashib boradi. O'qituvchi shunday qilishi kerakki, natura darslarini o'quvchilarga qiziqarli bo'lishi uchun naturadagi narsalarni oddiydan asta sekinlik bilan murakkablashtirib borishi lozim.

Tasviriy san'at ta'limida voqea yoki hodisalar bilan o'quvchi, yoshlarni qiziqirtirmasdan balki mashg'ulotlarni sistematik olib borilishi bilan qiziqtirish lozim.

Tasviriy san'atni dars turlariga bo'lib o'qitiladi:

Qalamtasvir;

Rangtasvir;

Kompozitsiya;

Amaliy san'at

Haykaltaroshlik;

San'at tarixi;

Qurish – yasash.

Bu fanlarning bir-birlari bilan bog'liq bo'lib mashg'ulotlar davomida bir-birlarini doim to'ldirib boradi. O'quvchilar esa olgan bilimlarni kengaytirib boradi.

Tasviriy san'at asoslarini o'qitishda o'quvchilarga individual yondoshish.

Maktab xar bir individual xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladigan turli yoshdagi bolalar ta'lim oladi. O'quvchilar orasida ko'rib turgan narsalarni to'g'ri tasvirlay oladigan xotira asosida qiynalmay rasm chizadiganlar bilan bir qatorda, oddiy rasmga qarab nusxa ko'chirishga ham qiynaladiganlar uchraydi. Bu borada biz ba'zi o'quvchilarining ko'rish qobiliyatlarining sustligi, rang sezmasligi kabi boshqa xollar hisobga olinadi.

O'quvchilarning psixik va fizologik xususiyatlarini hisobga olish, har bir o'quvchining imkoniyatiga moslashish degan so'z emas. Aksincha turli usul va metodlar yordamida bilimlarini har bir o'quvchiga etkazish demakdir.

O'quvchilarning qobiliyat va xususiyatlariga qarab guruhlariga bo'lib ta'lim berish metodi maqsadlidir.

«Kuchli» biladigan o'quvchilarga «kuchsiz» bilimli o'quvchilarni biriktirib qo'yish ham yaxshi natijalar beradi. O'quvchilarning tasviriy faoliyatini aktivlashtirishda, ayrim o'quvchilar bilan yakka tartibda munosabatda bo'lish va unga pedagogik ta'sir o'tkazish ham katta ahamiyatga ega.

Ta'limning individuallashtirish masalasi hozirgi davrda pedagog va ruxshunos olimlar va uslubchilarni qiziqtirmoqda.

Sindagi bolalar haqidagi dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lgandan keyin, o'qituvchi hamma bolalarni qobiliyati va malakalariga qarab quyidagi guruxlarga bo'ladilar:

tasviriy faoliyati yaxshi rivojlangan, kuzatuvchanligi, ijodiy tassavuri tarakkiy qilgan, rasm materiallarini o'zlashtirgan yoki tez o'zlashtira oladigan o'quvchilar.

O'quv materiallarini umumiy tushuntirishdan keyin mustaqil ishlash orkali o'zlashtiradigan o'quvchilar.

Tasavvur qilish qobiliyati, so'z va dars materialini sust o'zlashtiradigan, o'qituvchining maxsus yordamida muxtoj o'quvchilar har uchchala guruxdagi o'quvchilarga tavsiya qilinadigan topshiriqlar oldindan tayyorlanib, O'qituvchining frontal tushuntirishdan keyin hamma o'quvchilar o'z

qobiliyatlariga yarasha ish bilan band bo'lishi kerak.

O'quvchilar aktivligini oshirishda o'qituvchi suxbati katta ahamiyatga ega. Suxbat har bir o'quvchining aktivligini ma'lum darajada o'stiradi. Natijada darsga aktiv qatnashadilar va xar bir savolga javob berishga intiladilar. Turli kartochka-savollar tarqatish o'quvchilarning ijodiy xayolini rivojlanishi uchun turki bo'lib xizmat qiladi, mazmunli rasm chizishda muvaffaqiyatga erishishlariga quyidagi usullar yordam berish mumkin.

Kartochka- savollar taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

Sen temani yoritish uchun qanday mazmunda rasm chizmoqchisan?

Tasviringda asosiy o'rinni nima egallaydi?

Ayrim narsalarni rasmini to'g'ri chizdingmi? Teshkirib ko'r.

Birinchi plandagi narsalarni va figuralarni orqa plandagilar bilan taqqosla va boshqalar.

To'g'ri tuzilgan kartochka-savollar o'quvchilar bilimining mustahkamligini oshiradi, larning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

O'quvchilar bilan individual ishlashda rag'barlantirish usullarining roli ham katta. O'qituvchi o'quvchilarning vazifalarini tekshirayotganda faqat I –II gruppaga o'quvchilarning yutuqlarini namuna sifatida ko'rsatavermay, III gruppaga o'quvchilarini xatm e'tibor berishi kerak. Ulardagi ozgina bo'lsada o'sish va o'zgarishni xisobga olgan holda, ularni rag'barlantirib turish shart. Masalan: bolalar qarang Karim chizgn suratga. Oldingi ishlaridan ancha tuzuk. Karim harakat qilsa, a'lochi o'rtoqlariga tez kunda etib olishi mumkin ekan. Bugun men unga «4» bal qo'yaman. Agar bundan ham yaxshiroq chizib qolsa, u ham o'rtoqlariga o'xshab «5» baho oladi. O'qituvchining bu so'zlari karimni albatta «5» bahoga olishga undaydi. O'quvchilarning aktivligini oshiradi.

O'quvchilar bilan individual ishlashning ahamiyati katta. Bu usul yordamida qoloqlarsiz o'qitish darajasiga etish mumkin. Tasviriy san'at o'qitish xonalari yorug' bo'lishi kerak. YOrug'lik normal bo'lmagan joyda ko'rish sezgilariga zo'r berish zararlidir.

Ba'zi bir xil o'quvchilarda yaxshi eshitmaslik, uzoqdagini ko'ra olmaslik

kabi kasalliklar uchraydi. Odatda bu xil o'quvchilar o'qituvchining e'tiborda bo'lishi va oldingi partalarda o'tirgani ma'qulroqdir.

Ko'z har xil uzunlikdagi yorug'liq tulqinlarini bir xilda sezmaydi. Ko'z sariq va havo rangni sezishga moyilroq bo'ladi. Ba'zan xromatik ranglarni mutloqa sezmaslik hollari ham uchrab turadi.

Bunday kishining ko'ziga barcha buyumlar qoramtir rangga bo'yalgandek ko'rinadi. Ko'pincha ayrim ranglarni qizil va yashil rangni sezmaslik holati uchrashi mumkin, bu daltonizm deyiladi.

Daltonizm ko'rishidagi eng muhim kamchilik hisoblanadi. Bunday o'quvchilarning kasb tanlashda o'qituvchi alohida e'tibor bermo'i zarur, chunki daltonizmga uchraganlar, shofer, mashinist va uchuvchilik qila olmaydi, rassom bo'la olmaydi.

2.2. O'zbek xalq rassomlarining, bizga qoldirgan boy me'roslaridan namunalar.

Pavel Petrovich Benkov

Pavel Petrovich Benkov 1879-yilda Qozon shaxrida tavvalud topgan. 1949-yilda Samarqandda vafot etgan. U O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1939-yil). Dastlab P.Benkov qozon badiiy bilm yurtiga o'qigan. Keyinchalik Peterburg badiiy akademiyasida, D.N.Kardovskiydan, Parijda rassom R.Jyulian-ning xysusiy akademiyasida ta'lim olgan. Italiya, Ispaniya, Fransiyaga safar qigan. 1913-1928 yillar davomida "Kovalevskiy bolalarining portreti", "Rassom ayol portreti" asarlarini yaratgan. Qozon katta teatrida bir qator spektakllarga deko-ratsiyalar ishlagan. 1929 yilda Samarqandga kelib, 1930 yildan oshlab shahardagi badiiy bilim yurtiga o'qituvchilik qilgan.



Volgada. 1914y.

Uning o'tgan asrning 30- yillari o'rtalari da yaratgan asarlarida, O'zbekistonning qadimiy shaharlari qiyofasi, o'ziga xos iqlimi, serquyosh manzaralari, o'zbek millatining betakror madaniyati, kishilari obrazi yorqin bo'yoqlarda gavdalandiriladi.

Uning "Buxoro timi" (1929 y.), "Xivalik qiz"(1931y), "Buxorodagi oshxona" (1929y), "Eski Buxoro" (1931y), "Minorai Kalon" (1930 y.), "Dugonalar", (1940y.), "Qahramonning onasi" (1942y.), "Jangchiga" (1945y.), "Dugorchi qiz" (1947y.), "Ko'cha", (1943y.), "Registondagi choyxona", (1944y.) nomli asarlari, O'zbekistonning mumtoz me'moriy obidalari va manzalariga bag'ishlangan. Pavel Benkov Samarqandning ko'cha va bog'lari, bozor va hovlilari, maydon va choyxonalari, ulardagi hayotning o'ziga xos go'zalligini yorqin va hayoti ifodalovchi o'nlab asarlar yaratgan. O'zbekistonda tasviriy san'atning shakillanishida, milliy kadrlar yetishtirishga uning xizmatlari beqiyos bo'lgan.



N.O.Stepanovoy-Shevchenko. Portreti. 1915-1919 y.



Kechki Istanbul.1914y



Ko'cha yozuvchisi. 1929y.



Shmulevich. Portreti.



Qariya portreti. 1925-1926y.

O‘rol Tansiqboyev

O‘rol Tansiqboyev mashhur manzarachi rassom, rangtasvir ustasi. U 1904 yilda Toshkentda tavallud topib, 1974 yilda vafot etgan. O‘.Tansiqboyev yoshligidan san’atga qiziqib, Toshkentdagi badiiy muzey qoshidagi to‘garakka (studiya) qatnab, dastlabki saboqlarni rassom, I.Repinning shogirdi, N.Rozanovdan oldi. To‘garakka qatnab yurgan yillari- dayoq u ko‘plab kompazitsiyalar ishladi.

Uning ilk ishlaridan biri 1927 yilda yaratilgan “Toshkentboyev partreti” edi. Studiyada tasviriy san’at borasida olgan bilimlaridan ko‘ngli to‘lmagan O‘.Tansiq-

boyev Rossiyaning Penza shahridagi badiiy-pedagogika bilim yurtiga o'qishga kiradi.



U yerda I.Repinning shogirdlari , I.Goryushkin-Sorokupudov va N.Petrovdan san'at sirlarini o'rganadi. Ayniqsa, unga Rossiya mashhur rassomlarining Penza muzeyidagi tasviriy san'at asarlari katta ta'sir ko'rsatdi. Ularni o'rganish va ayrim- laridan nusxalar ko'cherish O'.Tansiqboyev uchun katta maktab vazifasini o'tadi.



O'rol Tansiqboyevning mustaqqil ijodi, O'zbekistonda milliy san'atning tiklanish davriga to'g'ri keldi. U o'z ijodining dastlabki yilida yillarida anchagina asar- lar yaratgan bo'lsa-da, biroq uning asosiy ijodi 1940 yidan so'ng boshlanadi. U O'zbekiston delegatsiyasi tarkibida ikkinchi jahon urushi bo'lgan joylarga borib, u yerlardan katta taasurotlar bilan qaytdi. Natijada "Ozod etigan yerlarda", "Mal'-

unning yo‘li”, “Partizan ayol”, “Havo jangi” kabi bir qator asarlar yaratdi. 1943 yilda unga O‘zbekistonga ximat ko‘rsatgan sanat arbobi unvoni berildi.

Urushdan keyingi yillarda O‘rol Tansiqboyev katta o‘lchamdagi asarlar yarata boshladi. Bunday asarlar qatoriga “Sholi hosilini yig‘ib olish”, “Bahor”, “Paxtani sug‘orish”, “Jonajon o‘lka”, “Issiqko‘l oqshomi”, “Tog‘da ”kabilarni kiritish mumkin.



Rassom ijodining gullagan davrida yaratgan asarlaridan yana biri “O‘zbekistonda mart” deb ataladi. Rassomning bu asarida bahorgi quyosh taftidan bahra ola boshlagan maysazorlar, daryoga olib boruvchi so‘qmoq, daryo qirg‘og‘ining baland-pastliklari, qiyg‘os gullagan daraxtlar, o‘zaniga sig‘may oqayotgan daryo, daryoning narigi tomonidagi tepaliklar, qori erib tugamagan tog‘lar, quyosh nuriga hamohang tusga kirgan bulutlar kishiga zavq bag‘ishlaydi.

O‘rol Tansiqboyev o‘zining urushdan keyingi ijodida, Respublikada qurilayotgan kanallar, suv omborlari, elektrostansiyalari, neft nqiduruv ishlari bilan hamohang tabiat manzaralarini tasvirlashga harakat qiladi. Natijada u”Togda bahor”, “Qayroqqum GESi tongi”, “Angren vodiysi” kabi betakror asarlar yaratdi.



Rassomga shuhrat keltirgan asarlaridan biri, “Qayroqqum GESi tongi” deb ataladi. Bu asarda, yuqoridan turib kuzatilgan elektrostansiyasi va suv ombori lirik kayfiyatda tasvirlangan bo‘lib, undagi qurilishlar tabiat bilan uyg‘unlashib ketgan. Suvrat markazidagi erta tongda zangiri tusga kirgan elektrostansiyasi to‘g‘oni cheti ko‘rinmas ulkan dengizni mahkam tutib turgandek tuyiladi.

Asarni kuzatgan odam sahroga jon bag‘ishlovchi mo‘jizakor manzaraning sehrli olamiga kirib qoladi. Unda olislarga bo‘y cho‘zgan mussaffo dengiz qa‘riga ko‘milgan shodlik va nafosatga boy tong yorishib kelayotganligini qalbdan his etadi. Bu suvratda tasvirlangan narsalar juda oddiy, lekin sehrlidir. Chunki dengiz, osmon va kengliklarning bepoyonligi, koloritning jozibadorligi, mayinligi kishini o‘ziga tortadi. Manzarada suv, cho‘l, tog‘ va fazo yirik hamda umumlashgan holda berilganligi sababli, asar nihoyatda salobatli ko‘rinadi.

O‘rol Tansiqboyev ijodiy yo‘nalishini belgilab beruvchi asarlardan yana biri “Tog‘dagi qishloq oqshomi” manzarasidir.

Asar tik holdagi kompazitsiyadan iborat. Unda Respublikamizning tog‘lik go‘zal qishloqlaridan biridagi kechki payt tasvirlangan. Asarda uzoqlarda yastanib yotgan moviy tog‘lar, chiroqlarini endigina yoqqan xonadonlar, qishloq yonidan oqib o‘tgan soy, kishilar va bolalar tasviri ko‘zga tashlanadi. Kishilar va bolalar tasviri manzaraga hamohang tarzda unga hayotiylik baxsh etadi.

Suratdan ko‘rinib turibdiki, kech kirib, oqshom tushgan va tog‘ cho‘qqilariyu, qoyali toshlarni tun o‘z qa‘riga tortmoqda. Tepaliklardan tushib kelayotgan qo‘ylarning ma‘rashi, soyning shuvillashi, chigirtkalarining chirillashi eshitilayotdek tuyiladi. Kechki yog‘du bag‘rida, uning zavqini tortayotgan bolalar tasviri, u yer, buyerlarda ko‘zga tashlanadi. Kech kirib, viqorli tog‘lar orqasiga quyosh berkingan, uning o‘rniga oy chiqmoqda.

O‘rol Tansiqboyevning diqqatga sazavor asarlaridan yana biri 1955 yilda yaratilgan “Sirdaryo” nomli manzara bo‘lib, u Moskvadagi Tretyakov galereyasida saqla nadi.

1960 yillarda rassom “Tog‘ yo‘li”, “Angren-Qo‘qon yo‘li”, “Angren daryosi”, “Chorvoq qurilishida” kabi bir-biridan jozibali asarlar yaratdi. Umrining oxirlarida yaratgan “Kuz tongi”, “Mening qo‘shig‘im”, “Chordaryo suv omborida” kabi asarlari esa rassom ijodining, cho‘qqilari bo‘lib qoldi.

O‘rol Tansiqboyev ijodiga xos xususiyatlar ona-Vatanga muhabbat, uni ulug‘lashdir. Rassom asarlarida tabiatni keng qamrovli va osmon o‘par tog‘lar, uzoqlarga ketgan ilon izi yo‘llar, moviy osmon, ko‘k bilan tutashib ketadigan go‘zal hayotiy manzaralar tasvirlanadi. Ayrim hollarda, kishilar tasvirlari ham yorqin ranglarda ifodalanadi.

O‘rol Tansiqboyev katta hayot yo‘lini bosib o‘tdi. U 1934 yillardayoq Moskva va Finlandiyada o‘tkazilgan tasviriy san‘at asarlari ko‘rgazmasida o‘z ishlari bilan qatnashdi. O‘rol Tansiqboyev 1958 yida Bryusseldagi xalqaro ko‘rgazmada “Qayroqqum GESi tongi” asari bilan, qatnashib xalqaro kumush medal bilan taqdirlandi.

Vatanimiz san‘atini rivojlantirishdagi xizmatlarini taqdirlab, rassom hukumatimizning bir qator orden va medallari bilan mukofotlangan. U O‘zbekiston xalq rassomi, Rossiya Badiiy Akademiyasining haqiqiy a‘zosi edi.

Rassomning bir qator asarlari Moskvadagi Tretyakov galereyasi, Sharq xalqlari san‘at muzeyi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojigiston, Moldova, Litviya, O‘zbekiston san‘ati muzeylaridan o‘rin olgan.

O‘rol Tansiqboyev birinchilar qatori manzara janrida ijod qilib, san’atimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan mussavirlardan edi. U o‘z asarlarida O‘zbekistonning go‘zalligini, uning jozibasini kuyladi. O‘rol Tansiqboyevning asarlari yana uzoq yillar bizni va kelajak avlodlarni ham Vatanga muhabbat, go‘zallikdan zavqlanishga chorlab turishi shubhasizdir.

Laylo Abdubakirovna Salimjonova

Hozirgi zamon, O‘zbekiston tasviriy san’atining manzara, portret, natyurmort va maishiy janrlarida barakali ijod qilayotgan, o‘zbek rassomlaridan yana biri, Laylo Salimjonovadir.

Laylo Abdubakirovna Salimjonova 1936 yilda Samarqand viloyatining Urgut shahrida tug‘ulgan. Layloning otasi huquqshunos, onasi uy bekasi edi. Ushbu oila 1941 yilda Toshkentga ko‘chib keladi. Oilada san’atga dahldor kishi bo‘lmasada, Laylo o‘rta maktabning 8-sinfini tamomlab, o‘zining qiziqishi tufayli P.P.Ben`kov nomidagi Respublika badiiy bilim yurtiga o‘qishga kiradi. Bilim yurtini 1957 yilda muvaffaqiyatli bitirib, shu yilning o‘zida teatr va rassomlik institutining tasviriy san’at fakultetiga hujjat topshiradi. Institutni 1963 yilda tamomlaydi. U yerda Laylo, N. Qo‘ziboyev, T.Oganesov, P.Ahmedov kabi ustoz rassomlar qo‘lida san’at sirlarini o‘rganadi. Yosh rassomni marg‘ilonlik kashtachi qizlarning betakror va ajoyib ishlari nihoyatda qiziqtirib qoladi. Shu boisdan u diplom ishi uchun “Marg‘ilon kashtachilari” mavzusini tanlaydi.

“Saodat” jurnalining bosh muharriri shoira Zulfiya, Laylo Salimjonovani 1963 yilda, ya’ni u hali talabalik davridayoq mazkur jurnalga ishlashga taklif qilgan edi. Shu tariqa Laylo Abdubakirovna Salimjonova bu jurnalda 30 yil mobaynida bosh rassom bo‘lib ishladi. Keyinchalik u “Guliston” jurnalida ham faoliyat ko‘rsatdi. Bu yillar mobaynida iste’dodli rassom O‘zbekiston rassomlar uyushmasining a’zosi bo‘ldi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi unvoniga saza- vor bo‘ldi.

Laylo Salimjonova o‘tgan asrning 60-70 illaridagi ko‘rgazmalarda asosan portret janridagi asarlari bilan qatnashar edi. Uning bu janrdagi “Jamila Jumaeva”, “Bahri G‘ulomova”, “Zulfiya” kabi asarlari diqqatga sazovordir. Keyin-

chalik u “Halima Xudoyberdiyeva”, ”Onalik”, “Yashnarxon portreti”, “Singlim portreti”, “Ma’mura Boboyeva”, “To‘quvchi qizlar”, “Farida portreti”, “Arxitektor M. Xudoynazarova”, “Dilorom Qambarova”, “Zamira Hidoyatova”, “Hamro Rahimova” kabi yana o‘nlab betakror ortretlarni yaratdi. Birgina “Hamro Rahimova” asarining yaratilishi tarixiga nazar tashlasak, qiziq hikoyaning guvohi bo‘lamiz. Rassomasar yaratishga material to‘plash maqsadida xalq o‘yinchoqlari ustasi Hamro Rahimovaning uylariga borib, ularning xonadonlarida bir necha kun mehmon bo‘ladi. Laylo Salimjonovani betakror o‘yinchoqlarning yaratilish bosqichlari nihoyatda qiziqtirib qoladi. Bu jarayonni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan rassom shu ondayoq yaratilajak asarining kompozitsiya yechimini topadi. Laylo Salimjonova ustaning mehnat jarayonida xomak eskizlar ishlar ekan, ba’zida uni savollarga ko‘mib tashlar edi. Shu tariq “Hamro Rahimova” suvrati yaratilgan. Qiziq tomoni shundai, bu asardagi turli yosgdagi bolakaylar tasviri umuman qaxramonga notanish va rassom tomonidan kiritilgan.

“Ustaning hovlisida bu quvnoq bolalarning ko‘rmagan bo‘lsam-da, o‘zimda bolalar timsolini ham asarga kiritish istagi paydo bo‘lgan”, – deydi, asar muallifi.

Laylo Salimjonova tabiatni tasvirlashda ham o‘z yo‘nalishga ega. Bunga “Soy bo‘yida”, “Oq tosh”, “Varrak”, “Hovlida”, “Qoratosh”, “Tog‘da kuz” kabi asarlarini kuzatish orqali yana bir bo‘amin bo‘lamiz. Ayniqsa, “Tog‘da kuz” asari ham mazmun, ham kompozitsiya jihatidan chuqurroqdir. Asarda ilgari surilgan g‘oya – kuz faslining go‘zalligi, musaffolik, sokinlikni tarannum etishdan iboratdir. Savlatli tog‘lar, barglari sarg‘aygan bog‘lar, qirg‘og‘I toshlar bilan o‘ralgan zilol suvli soy va boshqako‘plab manzara unsurlari, yuqori tasviriy mahorat bilan ishlangan.

Laylo Salimjonova gularni juda sevadi. Uning “Xrizontema natyurmorti”, “Oq gular”, “Moviy fondagi natyurmort”, “Xrizontemalar” kabi asarlarini kuzatib, gullardagi go‘zallik – rassom ijodining asosiy mavzusi deyish mumkin.

1991 yilda yaratilgan “Xrizontemalar” nomli natyurmortida rassom gullarning guldonda tartibsiz joylashuvi, ularning issiq rangli fonda jilolanishi, hamda qisman ko‘ringan stolning perespektiv holati orqali asar kompozitsiyasini yaxlit

namoyon etadi. Laylo Salimjonova mo'yqalamiga mansub asarlar, Angliya, Iordaniya, Isroil, Hindiston kabi ko'plab davlatlarga yetib borgan. Uning "Qora qahva" nomli natyurmorti esa, Angliyalik mashhur shaxsiy kolleksioner tomonidan sotib olingan.

Laylo Salimjonova yurtimiz rassomlarining keksa avlodiga bo'lishiga qaramay, hanuzgacha ijod bilan band. U o'z suhbatlarida Z. Inog'omov, M.Saidov asarlarini sevishini, jahon san'ati namoyondalaridan Van Gog ijodiga o'zgacha hurmat bilan qarashini e'tirof etadi.

Laylo Salimjonovanning ijodi oilasiga ham tasir qilgan. Buni rassomning ug'li Ahmad Boboyev ijodida yaqqol ko'rish mumkin. U kino sohasida rassom bo'lib ishlaydi. Qizi Lola Boboyeva ham onasi kasbini ezozlab, dezaynerlik san'atini egallagan. Uning ishlari AQSH hamda Parij ko'rgazmalarida muvaffaqiyat bilan namoyish qilingan. Laylo Salimjonovanning turmush o'rtog'i Baxtiyor Boboyev ham mashhur o'zbek rassomlaridan biridir.

Malik Nabiye

Rangtasvirchi rassom, pedagog, O'zbekiston badiiy akademiyasining akademigi, O'zbekiston xalq rassomi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Malik Nabiye 1916 yilda Toshkent shahrida tavallub topgan va 2008 yilda vofot etgan. Malik Nabiye tasviriy san'atning ilk saboqlarini rassom Bahrom Hamdamiydan o'rganadi, 1933 yilda ustozi maslahatiga ko'ra, rassomlik bilim yurtiga o'qishga kiradi. 1937 yilda bilim yurtini tugatib, shu yerda o'qituvchilik faoliyatini boshlaydi. 1962 yilda esa Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti badiiy grafika fakultetini tugatadi. O'sha yillarda uning san'atiborasidagi mustaqil ijodiy faoliyatini boshlanadi. Rassom urishning og'ir yillarida qishloqlarni kezib, portretlar ishladi, fashistlarni qoralovchi plakatlar chizib, chaqiriqlar, shoirlar yozib, front ortidagi mehnatkashlarni sharaflash bilan g'alabani yaqinlashtirdi.

Rassom o'z faoliyati davimida hamisha tarixiy shaxslar portretlarini yaratishga, tarixiy voqealarni tasvirlashga intilar edi.



Tarixiy shaxslar timsolini yaratish naqadar mushkulligiga qaramasdan, u o‘zining tinimsiz mehnati tufayli buyuk siymolar qiyofasini yuksak badiiy saviyada yarata oladi. Bu benazir asarlar ichida Amur Temur, Beruniy, Bobur, Ibn Sino, Jomiy va Navoiy, Ar-Roziy, Al Xorazimiy kabi bir qancha yirik olim, shoir, davlat arboblarning portretlari alohida o‘rin tutadi.

Mazkur bebaho asardan biri 1962 yilda yaratilgan Zahiridin Muhammad Bobur portretidir. Mazkur asarni yaratish uchun rassom ko‘p yillar davomida ijodiy izlanishlar olib bordi. U Bobur yashagan- Andijon, Samarqand shaharlarida, shuningdek, Avg‘oniston, Hindiston kabi mamlakatlarni kezib chiqdi. Bobur haqida yaratilgan mo‘jaz rangtasvir asarlarini har tomonlama batafsil o‘rgandi.

Nihoyat rassomning ko‘p yillik tinimsiz memehnati natijasida yaratilgan Bobur portreti keng jamoatchilik tomonidan olqishlarga sazovor bo‘ldi.

Beruniy tavalludiga 1000 yil to‘lishi munosabati bilan 1963 yilda Beruniyning eng yaxshin portreti uchun e‘lon qilingan tallovda Malik Nabiyevning ishi birinchi mukofatni oldi. bu portret Yuneskoning “Kurer” jurnali muqovasida va xorijiy mamlakatlarning ko‘pgina jurnal va gazetalarida ham chop etildi.

Malik Nabiyev ijodida 1994 yilda yaratilgan “Amir Temur portreti” asosiy o‘rinni egallaydi. Bu asarni yaratish istagi ijodkordagi 1941 yilda Sohibqironning qabri ochilib uning bosh suyagi olingan bu asosda rus haykaltaroshi M. Gerasimov tomonidan Amir Temurning haykalini ishlashga kirishilgan paytdan boshlangan.

Rassom Sohibqironning bosh suyagini muzeyda o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, uning portretini ishlashga kirishadi.

Amir Temurdek buyuk shaxsning portretini qanchalik masuliyatli va murakkab ekanligini his qilgan rassom bu ulug‘ va shatafli ishga ellik yildan ortiq vqt sarfladi. Bu davrda u Hindiston, Eron, Turkiya, Angliya, Fransiya, Ispaniya kabi mamlakatlarning mzeylari va kutubxonalarida saqlanayotgan va bevosita Amir Tmur hayoti va faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan mo‘jaz rangtasvir asarlarini, u haqda yaratilgan ko‘plab adabiyotlarnim miridan-sirigacha puxta o‘rgandi.

Oxiri oqibatda, davlat arbobi, xarbiy qo‘mondon siymosini realistik tarzda zo‘r mahorat bilan yaratishga muvaffaq bo‘ldi. 1994 yilda eng yaxshi yaratilgan Amur Temur siymosi uchun e‘lon qilingan Malik Nabiyeving maskur portret bosh mukofotga sazovor bo‘ldi.

Rassomnig tarixiy janrda yaratilgan ayrim asarlarida ozodlik uchun bo‘lgan xalq qo‘zg‘olonlarining mohiyati ochib beriladi. Malik Nabiye vavloddan-avladga hikoya qilinib kelinayotgan tarixiy voqealarni astoydil o‘rganib, tarix sirlarini jonli ranglarda tasvirlashga muvaffaq bo‘lgan noyob rassomlar toyifasiga kiradi. Uning anashunday asarlaridan biri Iskandar Zulqarnayga qarshi ozodlik kurashi haqidagi “Spitamen qo‘zg‘oloni” suvratdadir. Shu janrdagi yaratilgan asarlar qatoriga “Samarqandda hunarmandlar qo‘zg‘oloni”, “Jizzax qo‘zg‘oloni” kabi ishlarni ham kiritish mumkin.

Malik Nabiye v nafaqat betakror rassom, balki shu bilan birga mohir pedagog, ustoz va yetuk murabbiy ham edi. U 1960 yildan boshlab uzoq yillar davomida Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti (universitet)ning badiiy grafika fakultetida kafedra mudiri va prafessor sifatida faoliya ko‘rsatgan. Rassom maktab, bilim yurtlarining o‘qituvchilari, talabalar uchun metodik ishlar yaratishda ham samarali mehnat qildi. Uning bu boradagi ishlarining aksa- riyati alohida kitoblar shaklida chop etigan. Ijodkorning sermhsul ijodiyfaoliyati hukumatimiz tomonida munosib taqdirlanib, unga “Buyuk xizmatlari uhun” ordeni berilgan.

UMUMIY XULOSA

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida hozir amalga oshirilayotgan islohatlar badiy va dizayn ta'lim-tarbiya jarayoning oldingi holatiga nisbatan rivojlanayotgan, yaxshilanayotgan bo'lsada uni yanada rivojlantirish zaruriyatini ham keltirib chiqarmoqda.

Bu masalada tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisining roli katta. U chuqur bilimga ega bo'lishi uchun tinmay o'z ustida muntazam mashq qilib borishi, o'zining ilmiy-nazariy, amaliy bilim saviyasini takomillashtirib, ilg'or tajribalarni o'rganishi unga tayanishi lozimdir.

Har bir tasviriy san'at va chizmachilik darsini kerakli ko'rgazmali vositalar bilan boyitib, undan foydalanishi lozim. Chunki bu fanda ko'rgazmalar yordamchi emas balki ular dars uchun asosiy materiallardan biri bo'lib hisoblanadi.

Borliqni texnikani o'rganish uchun o'quvchilani komil shaxs qilib tarbiyalash uchun ularning o'quv faoliyatini faollashtirish davr talabidir, bu shundagina o'quvchi hayotiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Tasviriy san'atda, borliqni aks ettirish o'z-o'zidan paydo bo'lmadi. U inson paydo bo'lishi bilan shakllanib taraqqiy eta boshladi. O'rta asrga kelib o'zining eng yuqori cho'qqisini namoyon qildi. Yevropa bu borada dynuo sivilizatsiyasiga o'ziga xos o'ringa ega. Zamonasining eng buyuk tasviriy san'at arboblarni yetishtirib berdi va shularning mehnati natijasida shakllandi.

Men o'zimning malakaviy bitiruv ishimda "Umumta'lim maktablarining tasviriy san'at mashg'ulotlarida, taniqli rassomlarning hayoti va ijodini o'rganish" haqidagi umumiy tushunchalarni bayon etdim.

Bu ishim bilan men, kelajak avlodlarimiz bo'lgan bolalar ongini, tafakkurini boyitish, tasviriy san'at shaydolarini shakllantirishdek, byuk maqsad sari intiladigan, zamonamiz tayanchlarini, yetuk shaxslarni yetishtirib berishdek mas'uliyatli vazifaga o'z hissamni qo'shganimdan mamnunman. Ko'nglida tasviriy san'atga bo'lgan ishtiyoqi baland kishilardan, hech qachon vatan xoinlari chiqmaydi. Bunday kishilar, vatan kelajagi uchun uning gullab yashnashi uchun,

qo‘llaridan kelgan barcha ishlarni qilishga, tayyordirlar. O‘z bilim va zakovatlarini, namoyon qila olishlariga iymonimiz komildir.

Men o‘z malakaviy bitiruv ishimda oldimga qo‘ygan maqsadimga erishdim.

ATAMALARNING IZOHLI LUG‘ATI

Avtoportret – portret janrining ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, rassomning o‘zini tasvirlashiga aytiladi.

Axromatik rang – oq, kulrang, qora ranglar bir-biridan yorug‘lik kuchlari bilan farqlanadi.

Asosiy rang – tabiatda mavjud bo‘lgan sariq, qizil va zangori ranglar.

Amaliy grafika – grafika san‘atining turlaridan biri. Turli xildagi yorliqlar, konvert yuzasiga ishlanadigan rasmlar, tabrik xati va telegrammalar, markalar shu turga mansubdir.

Animalist – (lotin «animal» – hayvon) hayvonlarni tasvirlovchi rassom yoki haykaltarosh.

Applikatsiya – bar xil rangli qog‘oz yoki mato parchalaridan soya tasvir (siluet), naqsh, gul va hokazolarni qirqib qog‘ozga yoki maxsus pannoga yopishtirish.

Assimetriya – nomutanosiblik, biror buyum qismlari, bo‘laklarining ma’lum bir nuqta, chiziq yoki tekislikka nisbatan bir-biriga o‘xshamasligi, munosib kelmasligi.

Afrodita – qadimgi yunon afsonalaridagi sevgi va go‘zallik ma’budasi.

Batalist – jang manzaralarini tasvirlovchi rassom.

Venera – Yunon va Rum afsonalarida muhabbat va go‘zallik ma’budasi.

Vitraj – (frans – deraza oynasi) rangli shisha, oyna bilan dekorativ xarakterdagi naqsh yoki tasvir ishlash. Odatda, rom derazalariga shunday tasvirlar ishlanib, ular o‘zida nur o‘tkazishi hisobiga turli ko‘rinishlar hosil qiladi.

Garmoniya – xarmoniya (grek) – bog‘liq bo‘lish, munosiblik, muvofiqlik, badiiy asar qismlarining mutanosibligi.

Grizayl – (frans. grizaille, griz – kul rang) kul rang yordamida bir rangning har xil tuslari orqali ishlangan tasvir.

Diptix – (grek, diptigos-ikki qatlangan) o‘rta asrlar san‘atida keng tarqalgan, ikki qismdan iborat relef va rangtasvirdan tuzilgan asar.

Drapirovka – fon uchun ishlatiladigan har xil rangli materiallar, gazlamalar.

Janr – (frans, tur. ko‘rinish). Tasviriyl san’atda janr deyilganda, biror bir mavzuni o‘zida aks ettiradigan san’at asarlari tushuniladi. Masalan, manzarada tabiatning turli ko‘rinishlari aks ettiriladi. Alohida yoki odamlar guruhini aks ettiradigan rasmlar esa portret janridagi rasmlar deyiladi. Meva, gul, uy buyumlari va shunga o‘xshash narsalarning tasvirini aks ettiruvchi rasmlar natyurmort janridagi rasmlar deyiladi va h.k.

Interer – uyning ichki ko‘rinishini tasvirlanishi.

Iliq rang – olovni, quyoshni eslatuvchi sariq, to‘q sariq, sarg‘ish, zarg‘aldoq va qizil rang kabilar.

Illyustratsiya – kitob, gazeta-jurnal grafikasining ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, matn yoki hikoya bilan bog‘liq bo‘lgan, shu hikoyadagi lavhaning ko‘rinishini o‘zida aks ettiradigan rasmlardir.

Inkrustatsiya – (lotin) har xil materiallarni birlashtirilib, san’at asari yaratish.

Kapitel – (lotin-kalla, bosh) ustunning yuqori qismi bezagi.

Kompozitsiya – (lotin kompozitio tuzilish, qurilish) badiiy asardagi obrazlar va badiiy vositalarning muayyan g‘oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi va ularning muvofiqligi.

Kompanovka – chiziladigan buyum, manzara va boshqalarni qog‘oz yuzasiga mos qilib joylashtirish.

Kolorit – yozilgan asarda mujassam ranglar majmuasi.

Kontrast – qarama-qarshilik, zidma-zidlik, ranglarning o‘zaro qarama-qarshiligi. Bir rangning yonida ikkinchi rangning yanada yorqinroq, keskinroq, ko‘rinishi. Yashil rangning yonida qizil rang yanada jozibali, chiroyliroq ko‘rinadi va hokazo.

Kontur – tarx, tashqi ko‘rinish. Narsaning qalamtasvirini ishlashda qo‘llaniladigan zirh chiziq.

Kopirovka – naqshlarning, qalamtasvirini qog‘oz va gazlamaga ko‘chirishda ishlatiladigan qora, qizil, sariq, zangori tusdagi rangli qog‘ozlar.

Lok – Moybo‘yoqlarda ishlangan tasvirlar uchun alohida lok qo‘llaniladi. Shuningdek, loklar aerozol bankachalarida chiqarilib, ular ko‘mir, pastel, sangina,

retush kabi tasviriyy vositalarda bajarilgan grafik ishlarning yuzasiga sepib mustahkamlanadi.

Lessirovka – rangtasvir texnikasi usullaridan biri. Qurigan qalin qatlam yuzasiga yorqin yoki yarim yorqin ranglarning berilishi.

Mozaika – rang-barang shisha, toshchalar, yog‘och, faner, charm qiyqimlaridan bir-biriga zich qilib yonma-yon yopishtirish yo‘li bilan hosil qilingan rasm.

Molbert – qalamtasvir va rangtasvir ishlash uchun qo‘llaniladigan moslama.

Mazok – surtma, mo‘yqalamda keskin va uzib-uzib ishlash, bunda asosan mo‘yqalamning karton yoki matoda qoldirgan o‘ziga xos izlari.

Nabroska – xomak ish, qoralama, o‘ziga xos chiziq va chizqlar yordamida tez bajariladigan tarxli tasvir.

Natyurmort – (frans. jonsiz tabiat) tasviriyy san’at janri. Gul, meva, sabzavot, qushlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, ayrim mehnat qurollari tasvirlanadi.

Plakat – (lotin, e‘lon, guvohnoma). Grafika san’atining turlaridan biri bo‘lgan plakatda tasvir va yozuvlar yoki faqat yozuvlar o‘zining badiiy ifodasi orqali davrning eng muhim voqcalarini tomoshabinga yetkazadi, uni kurashga da’vat etadi, ogoxlantiradi, tushuntiradi.

Plener – ochiq kenglik.

Rangtasvir – devorlarga ishlangan turli rasmlar, polotnolarga chizilgan surat, kino va teatr bezaklari. Bu san’atda rang muhim o‘rinni egallaydi va uning o‘ziga xos xususiyatli tomonlaridan birini tashkil qiladi. Grafika san’atida rang shunchaki yordamchi vosita vazifasini o‘tasa, rangtasvirni esa rangsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Rassom rang orqali borliqni ifodali obrazlarda tasvirlaydi, makonning cheksizligi, undagi narsalarning rang-barangligini, hamda hajmini ko‘rsatadi.

Reproduksiya – tasviriyy san’atga nisbatan olinadigan, haqiqiy badiiy asarning poligrafiya vositalari yordamida qayta hosil qilingan ko‘rinishi.

Restavratsiya – (lotin. tiklash) zarar ko‘rgan tasviriyy badiiy asarlarning umrini uzaytirish va ilmiy usullardan foydalanib, asl holiga qaytarish.

Retush – (frans, to‘g‘rilash) tasvirning aniqlangan kamchiliklarini to‘g‘rilash.

Ritm – yaratilgan asar komponentlarining ohangdor, tekis yoki dinamik qaytarilishi.

Syujet – (frans. buyum, narsa, harakat). Tasviriy san‘atda tasvirlangan buyum yoki voqea tushuniladi. Hayotiy voqea, lavha, harakat.

Siyoh qalam – kichik mo‘yqalam bilan naqsh tarxini bo‘yoqda chizib chiqish.

Sovuq ranglar – muz, qor, suvni eslatuvchi havo rang, zangori, ko‘kish yashil, to‘q binafsha kabi ranglar.

Tasviriy san‘at – odatda, mavjud borliqni ko‘rinarli obrazlar, shakllar orqali fazoviy kenglikda, yuzada yoki tekislikda (masalan, qog‘oz yuzasida, devor sathida va h.k.) aks ettira oladigan san‘atdir.

Tasviriy san‘at tushunchasi keng ma’noga ega bo‘lib, unga grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik san‘ati ham kiradi. Tasviriy san‘atning hamma turlari bir-biriga juda yaqin va bir qator o‘xshashliklari bor, lekin shu bilan birga, ulardan har birining o‘ziga xos tasvirlash uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari, ularning har biri ishlatilish o‘rni, aks ettiradigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab, bir qator tur va janrlarga bo‘linadi.

Etyud – (fransuzcha «o‘rganish») yirik asarlarni ishlash uchun bevosita naturadan, hayotdan ishlanadigan kichik lavha.

Etyudnik – etyud ishlashga moslashtirilgan ko‘chma dastgoh.

Qo‘shimcha ranglar – qizil, sariq va zangori bo‘yoqlarning aralashuvidan hosil bo‘ladigan omuhta ranglar.

Xolst – rangtasvir uchun maxsus tayyorlangan mato.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T., 1992.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. -T., 1997.
3. O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997.
4. O‘zbekiston Respublikasining Davlat ta’lim standarti, T.2003.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 9-sessiyasida so‘zlagan nutqi. - T.: Sharq, 1997. - 63b.
6. I.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T., “Ma’naviyat” 2008.
7. S.Abdirasilov. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasidan amaliy mashg‘ulotlarni bajarish. T., 1996.
8. B.Boymetov, S. Abdirasilov. Chizmatasvir. T., G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot, 2004.
9. B.Ziyomuhammadov, Sh.Abdullayeva. Ilg‘or pedagogik texnoigiya: Nazariya va amaliyot. T., Abu Ali ibn Sino nomidagi tiibiyot nashriyoti, 2001.
10. J.Majidov. Tasviriy san’atdan maktabdan tashqari ishlar. T., 1983.
11. M.N. Nabiyeu. Rangshunoslik. T., 1995.
12. R.Hasanov. Maktabda tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. T., «Fan», 2004.
13. O. Xudoyorova. O‘zbekiston maktablarida tasviriy san’at o‘qitish tarixidan. T., 1993.
14. N.Oydinov. Rassom-o‘qituvchilar tayyorlash muammolari. - Toshkent; O‘qituvchi, 1997.
15. B.Oripov. Tasviriy san’at darslari samaradorligini oshirish omillari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
16. R.Hasanov. Tema asosida rasm chizish jarayonida estetik tarbiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980.
17. R.Hasanov. Uchinchi sinfda tasviriy san’at darslari. O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1988.
18. R.Hasanov. Tasviriy san’at. 1-sinf o‘quvchilari uchun dasrlik. – Toshkent:

Yozuvchi, 2002.

- 19 X. Egamov. Bo‘yoqlar bilan ishlash. T., 1981.
- 20 S. Abdirasilov, N. Tolipov, N.Oripova. Rangtasvir. T., «O‘zbekiston», 2006.
- 21 S.S. Bulatov. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. T., «Mehnat», 1991.
- 22 S.S. Bulatov. Amaliy san’at qisqacha lug‘ati. T., 1992.
- 23 M.A. Mirzaahmedov. Boshlang‘ich naqsh ishlash metodikasi. T., 1976.
- 24 Е.Кондахчин. Методика преподавания рисунка в средней школе. — Москва: Искусство, 1951.
- 25 В.С.Кузин. Основы обучения изобразительному искусству в школе. — Москва: Просвещение, 1977.
- 26 B.Z. Azimova. Badiiy-grafika fakultetida kurs ishi bajarish yuzasidan metodik tavsiyalar. T., 1989.
- 27 S. Abdirasilov. Tasviriy san’at metodikasi. T.: «Ilm-Ziyo», 2006.
- 28 B. Boymetov. Portret qalamtasviri. T.: Nizomiy nomli TDPU rizografi, 2001.
- 29 K. G‘ulomov. Ashyolarga badiiy ishlov berish. T.: «Bilim», 2004.
- 30 B. Tojiyev. Qalamtasvir asoslarini o‘rganish. T.: Nizomiy nomli TDPU rizografi, 1994.
- 31 N. Ten. Gips modellarining rasmi. T.: «O‘qituvchi», 1994.
- 32 R.Hasanov. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2006.
- 33 S. Abdirasilov. Tasviriy san’at atamalari. T., 2003.

Navoiy davlat pedagogika instituti Pedagogika fakultetining Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi 4T kurs bitiruvchi talabasi Xoliqova Adiba Mardiqulovnaning "Maktabda tasviriy san'atni o'qitish didaktikasi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

Ilmiy rahbarning xulosasi

Talaba Xoliqova Adiba Mardiqulovnaning "Maktabda tasviriy san'atni o'qitish didaktikasi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bugungi kunning eng dolzarb masalasi – Maktabda tasviriy san'atni o'qitish didaktikasining o'rni haqida umumiy tushuncha berganligi va o'quvchilarni barkamol inson etib tarbiyalashda tasviriy san'atning roli, tutgan o'rni, qonun-qoidolari, uni idrok etish usullariga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy bitiruv ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, malakaviy bitiruv ishining maqsadi, vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati bayon qilingan.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 80 sahifani tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligiga talaba, Maktabda tasviriy san'atni o'qitish didaktikasini yaxshi o'zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan metodlari ishlab chiqilganligi, tasviriy san'at fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etilganligi, "tasviriy san'at" fanida olib boriladigan masg'ulotlarda o'quvchilarning ijodkorlini, faolligini oshirishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlanganligiga e'tiborni qaratgan.

Shu bilan birga tadqiqot ishini yozishda qiyosiy tahlil- pedagogik ko'zatuv, tajriba-sinov, metodlaridan unumli foydalana bilgan.

Malakaviy bitiruv ishi matnini o'rganish shundan dalolat beradiki, Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi, ilmiy apparati puxta o'ylangan, pishiq.

Maqsad va vazifalar ijrosi oqibatida qoʻlga kiritilgan natijalar ishning umumiy xulosalarida ham oʻz echimini topgan.

Yuqorida bildirilgan ijobiy fikrlar bilan birgalikda malakaviy bitiruv ishida tadqiqotchi Xoliqova Adiba Mardiqulovna tomonidan ayrim kamchiliklarga ham yoʻl qoʻyilgan, jumladan:

1. Malakaviy bitiruv ishi matnida imloviy xatolar uchraydi. Masalan, 14, 18-betlar.

2. Malakaviy bitiruv ishi matnida didaktikaning mazmuni toʻgʻrisida bildirilgan fikrlarni yanada kengroq shakllantirilsa maqsadga muvofiq boʻlardi.

Bildirilgan fikrlar, taklif va mulohazalar Malakaviy bitiruv ishining ilmiy qimmatiga taʼsir koʻrsatmaydi.

Malakaviy bitiruv ishi mustaqil ravishda yozilgan, yakunlangan ilmiy tadqiqot boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi talablariga toʻliq mos keladi. Uning muallifi – Xoliqova Adiba Mardiqulovna – Tasviriy sanʼat va muhandislik grafikasi ixtisosligi boʻyicha bakalavr darajasini olishga loyiqdir.

Ilmiy rahbar: _____ katta oʻqituvchi **S.A. Shovdirov**

Navoiy davlat pedagogika instituti Pedagogika fakultetining Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi 4T kurs bitiruvchi talabasi Xoliqova Adiba Mardiqulovnaning "Maktabda tasviriy san'atni o'qitish didaktikasi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Talaba Xoliqova Adiba Mardiqulovnaning "Maktabda tasviriy san'atni o'qitish didaktikasi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bugungi kunning eng dolzarb masalasi – tasviriy san'at ta'lim standartlari mazmunidan kelib chiqqan holda va unda ko'rsatilgan talablarga rioya qilib Maktabda tasviriy san'atni o'qitish didaktikasining o'rni haqida umumiy tushuncha berganligi va o'quvchilarni barkamol inson etib tarbiyalashda tasviriy san'atning roli, uning tutgan o'rni, hamda Maktabda tasviriy san'atni o'qitish didaktikasi qonun-qoidalari va uni idrok etish usullariga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, bitiruv malakaviy ishining maqsadi, vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati bayon qilingan.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 80 sahifani tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligiga talaba, o'quvchilarini Maktabda tasviriy san'atni o'qitish didaktikasi uni idrok etish darslarida fanni yaxshi o'zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan metodlari ishlab chiqilganligi, tasviriy san'at fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etilganligi, faninng mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijodkorlini, faolligini oshirishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlashga e'tiborni qaratganligi bilan ahamiyatlidir.

Ishi matnini o'rganish shundan dalolat beradiki, bitiruv malakaviy ishining tuzilishi, ilmiy apparati puxta o'ylangan, pishiq. Maqsad va vazifalar ijrosi

oqibatida qo‘lga kiritilgan natijalar ishning umumiy xulosalarida ham o‘z echimini topgan.

Shunga qaramasdan bitiruv malakaviy ishida ayrim kamchiliklar ham mavjud ekanligi ko‘zga tashlanadi, ya’ni:

- ba’zi bir imloviy xatolarga yo‘l qo‘yilgan (7, 18, 29, betlar);
- 13, 19, 36, -betlarda stilistik xatolar mavjud;

Lekin ushbu kamchiliklar tadqiqotning ilmiy qiymatini kamaytirmaydi, shu sababli uni yakunlangan ish deb hisoblash mumkin.

Malakaviy bitiruv ishi mustaqil ravishda yozilgan, yakunlangan ilmiy tadqiqot bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi talablariga to‘liq mos keladi. Uning muallifi – Xoliqova Adiba Mardiqulovna – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ixtisosligi bo‘yicha bakalavr darajasini olishga loyiqdir.

Navoiy Madaniyat va san’at kolleji o‘qituvchisi: _____ **F.Aslonov**